

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'l yozma huquqida
UDK 811.512.133

ORIPOVA NASIBA RAHIMJON QIZI

**ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON”
ROMANINING LEKSIK-SEMANTIK VA USLUBIY
XUSUSIYATLARI**

5A120102 – Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha
Magistr
akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

Namangan – 2017

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

**“DAK ga tavsiya etaman”
Magistratura bo'limi boshlig'i**

**_____ I. Ikromov
“ ” _____ 2017 yil**

**“DAK ga tavsiya etaman”
kafedra mudiri**

**_____ Sh. Abdurahmonov
“ ” _____ 2017 yil**

ORIPOVA NASIBA RAHIMJON QIZI

**ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON”
ROMANINING LEKSIK-SEMANTIK VA USLUBIY
XUSUSIYATLARI**

**5A120102 – Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha
Magistr
akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

**N.M. Uluqov,
f. f. d., prof.**

KIRISH.....	4
1-bob. “MEHROBDAN CHAYON” ROMANI VA UNING FONETIK, MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI	10
1.1. “Mehrobdan chayon” romanining o`zbek adabiyoti va o`zbek adabiy tili takomilidagi o`rni	10
1.2. Romanning fonetik va morfologik xususiyatlari	15
Bob bo`yicha xulosalar	24
2-bob. “MEHROBDAN CHAYON” ROMANINING LEKSIK-SEMANTIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI	25
2.1. Adibning sarlavha yaratish mahorati va sarlavhalarning lingvopoetik xususiyatlari	25
2.2. Yozuvchining so`z qo`llash mahorati	32
2.3. Asarda frazeologizmlarning qo`llanishi va uslubiy jilolari ...	41
2.4. Romanda qo`llangan paremiyalarning semantik va uslubiy tahlili	46
Bob bo`yicha xulosalar	56
3-bob. ROMANINING SINTAKTIK-USLUBIY TAHLILI..	57
3.1. Romanda qo`llangan kiritmalarning uslubiy xususiyatlari ...	57
3.2. Adibning timsollarni tasvirlash mahorati	63
Bob bo`yicha xulosa	75
Umumiy xulosalar	76
Foydalanilgan adabiyotlar	78

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida taraqqiyotning o'zbek modeli ma'naviy yuksalishga asoslanishi nazariy jihatdan asoslab berildi. Birinchi Prezidentimiz talqinlariga ko'ra, “...ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”.¹ Ana shu ruhan poklanish omili bo'lgan inson ma'naviyatini yuksalishida ona tili va badiiy adabiyotning alohida o'rni bor.

Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'urur va iftixori, milliy borlig'ini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi.²

Islom Karimovning “O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida ham Sharq, xususan, o'zbek allomalarining dunyo ilm-fani, madaniyati taraqqiyotidagi o'rni va xizmati mukammal, chuqur hamda keng tahlil qilindi: “Sharq olamida, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida rivojlangan madaniyatning mavjud bo'lgani haqida qadimgi baqtriya, so'g'd, o'rxun, xorazm yozuvlarida bitilgan yodgorliklar, devoriy tasviriy san'at asarlari va haykalchalari, arxitektura namunalari dalolat beradi.

Shu bilan birga, ko'plab tadqiqotchilar qayd etganidek, agar Yevropa Uyg'onish davrining natijalari sifatida adabiyot va san'at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo'lsa, Sharq Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyati, avvalo, matematika,

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008. — Б.48.

² Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқоролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2010. — 56 б.

astronomiya, fizika, ximiya, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo`ldi”.¹

Sharq Renessansi davri allomalari va mutafakkirlarining insoniyat tamadduni, ilm-fan va ma`naviyat taraqqiyot xazinasiga qo`shgan hissasi g`oyatda benazirdir, kamol topayotgan yosh avlodni insoniyatning buyuk siymolari yaratgan ilm-fan va yuksak madaniyat durdonalaridan bahramand etishning ahamiyati esa o`lchab bo`lmas darajada beqiyosdir.

Prezidentimiz ana shu ma`ruzada har bir o`zbek allomasining ilmiy faoliyatini asosli, mantiqli dalillar bilan tahlil qildilar.

Ulug` allomalarning ilmiy, ijodiy faoliyati I.A.Karimov ta`kidlanganidek, haqiqatda buyuk jasoratdir: “Bu ulug` zotlarning ilm-fan sohasiga baxshida etgan hayoti, ular erishgan va bugungi kunda butun ma`rifatli insoniyatni hayratga solib kelayotgan yutuqlari – bu, hech shubhasiz, haqiqiy ma`naviy jasorat namunasi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor va biz bunday jasorat oldida bosh egib ta`zim qilamiz.”² Ana shunday ma`naviy jasorat birinchi romannavis adib Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatiga ham xosdir.

Abdulla Qodiriy yozuvchining birinchi fazilati xususida fikr yuritib: “So`z so`zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Yozuvchining o`zigina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli, yozuvchilik aytmoqchi bo`lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashilmovchilik solmaslikdir. Bundan boshqa fikrning ifodasi xizmatiga yaramagan so`z va jumlalarga yozuvda o`rin berilmasligi lozim”, – deb yozadi.³ Yozuvchilikka ana shunday yuksak talab qo`ygan Abdulla Qodiriyning boshqa asarlari qatori “Mehrobdan chayon” poetikasi, hikoya tarzi, bayon-ifoda ohangi, ifoda uslubi ham o`zgacha.”⁴

¹ Президент Ислам Каримовнинг “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривождаги роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2014. 16. 05. – Б. 1.

² Каримов И.А. “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривождаги роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқи, 2-б.

³ Абдулла Қодирий. Ижод машаққати: Бадиий ижод тўғрисидаги фикр ва мулоҳазалар / Нашрга тайёрловчи Н. Каримов. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.6.

⁴ Жамоа. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 158.

“O’tkan kunlar” garchi ifoda jihatidan ko’p ohangli bo’lsa-da, unda vazmin-sokin bir ohang – tahliliy-psixologik tasvir yetakchi. “Mehrobdan chayon”da manzara butunlay boshqacha: ham hujjatli nasr, publitsistika, ham hajviy-yumoristik, ham lirik-romantik uslubiy shoxobchalar tutashib, bir-biri bilan almashinib, romanning o’ziga xos ko’tarinki, jo’shqin, serjilo ohangini tashkil etadi.¹

Shu nuqtai nazardan “Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanining leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi dolzarblik kasb etadi.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Keyingi yillarda badiiy asarlar, xususan, she’riy asarlarni lingvopoetik tadqiqiga alohida e’tibor berilmoqda. Natijada o’zbek tilshunosligida M.Yo’ldoshev², Sh.Doniyorov³, R.Normurodov⁴, G.Keldiyorova⁵, D.Ne’matova⁶, Y.Sayidov⁷, F.Bobojonov⁸, A.Sabriddinov⁹, G.Muhammadjonov¹⁰, S.Boymirzaeva¹¹, Sh.Shodieva¹², S.Normamatovlar¹³ tomonidan o’zbek yozuvchi va shoirlari, xususan, L.Jalolova¹⁴ning Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanining lisoniy tadqiqiga doir ishlari fikrimizning yorqin dalilidir.

¹ Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарофиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи: Университетлар ва пед. институтлари бакалавр нхтисослигини олувчилар дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 158.

² Ўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи мисолида): Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

³ Дониёров Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

⁴ Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

⁵ Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нутқида антитеза: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

⁶ Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

⁷ Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001.

⁸ Бобожонов Ф. Ўзбек жаҳид драмаларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2002.

⁹ Сабриддинов А. Ойбекнинг поэтик маҳорати: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.

¹⁰ Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2003.

¹¹ Боймирзаева С. Ойбек порзасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.

¹² Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007.

¹³ Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърятининг лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

¹⁴ Жалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007.

Shunday yutuqlarga qaramasdan, turli davrlarda ijod qilgan barcha shoir va yozuvchilarning asarlari tili, uslubi to'la lisoniy tadqiq etilgani yo'q.

Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani ham lug'aviy-ma'noviy, uslubiy jihatdan bir qator o'ziga xosliklarga ega. Shu bois mazkur asar tilini lug'aviy-ma'noviy va uslubiy tomonlarini tadqiq etish ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" (Тошкент: Шапк, 2015. – 288 б.) romani va u haqidagi ilmiy, badiiy manbalar ishning obyekti hamda tadqiq materialidir.

Tadqiqotning maqsadi. Ishning asosiy maqsadi romanning o'ziga xos lug'aviy, uslubiy qirralari, nozikliklari, adibning sarlavha yaratish, so'z, ibora, maqol qo'llash va boshqa uslubiy vositalardan foydalanish mahoratini lingvopoetik talqinda o'rganish.

Tadqiqotning vazifalari. Ishning asosiy maqsad-mohiyatidan kelib chiqib ish oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

1. "Mehrobdan chayon" romani tilining soddaligi, ravonligi, xalqchilligi va o'zgachaligini ta'minlagan lisoniy omillarni aniqlash hamda yoritish.
2. Abdulla Qodiriyning tilning fonetik-fonologik vositalaridan foydalanish mahoratini o'rganish.
3. Romanning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlarini lingvopoetik jihatdan o'rganish.
4. Yozuvchining sarlavha yaratish, so'z qo'llash mahoratini tahlil qilish.
5. Adib ijodiga xos okkazionalizmlarni aniqlash va ularni tahlil qilish.
6. Abdulla Qodiriy yaratgan hikmatli so'zlar va asarda qo'llangan maqol, matal hamda iboralarningning uslubiy xususiyatlarini izohlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertatsiyada o'zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasida erishilgan yutuqlar asosida Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanining lug'aviy-ma'noviy va uslubiy xususiyatlari lingvopoetik aspektda tadqiq etildi.

Tadqiqotning metodlari. Tadqiqotning metodologik asosini falsafaning shakl-mazmun, sabab-oqibat, umumiylik-xususiylik kategoriyalari, zamonaviy tilshunoslikning badiiy-estetik merosni ilmiy baholash, lisoniy tadqiqiga oid qarashlar tashkil etadi.

Ishda, asosan, tavsiflash, lugʻaviy-maʼnaviy tahlil, uslubiy tahlil, lingvo-poetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Mavzuga oid nazariy masalalarni yoritishda mashhur tilshunoslar A.Hojiev, R.Qoʻngʻurov, E.Begmatov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, S.Karimov, J.Lapasov, M.Yoʻldoshev, adabiyotshunoslar M.Qoʻshjonov, U.Normatov, S.Mirvaliyev, A.Zunnunov, I.Mirzayev, B.Karimov va boshqa olimlarning tadqiqotlariga asoslanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot materiallaridan Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanining lingvo-poetik xususiyatlarini, lingvopoetika va unga doir ilmiy, amaliy masalalarni oʻrganishda, oliy oʻquv yurtlarida “Tilshunoslik nazariyasi”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Uslubiyat”, “Badiiy tahlil asoslari”, “Oʻzbek tili tarixi” fanlarini oʻqitishda, akademik litsey va umumiy oʻrta taʼlim maktablarida shoir ijodini, xususan, romanni oʻrgatishda foydalanish mumkin.

Ishning sinovdan oʻtishi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasida yigʻilishi (2014-yil 24-may)da muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Dissertatsiya natijalarining eʼlon qilinishi. Ilmiy tadqiqot ishining asosiy mazmuni yuzasidan Respublika oliy oʻquv yurtlari va NamDU ilmiy toʻplamlarida quyidagi maqolalar eʼlon qilingan:

1. “Меҳробдан чаён” романидаги сарлавҳаларнинг лингвопоэтик хусусиятлари // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари: Ўзбекистонда хизмат кўрсатган халқ таълими ходими, филология фанлари доктори, профессор Абдулҳамид Нурмонов хотирасига бағишлаб ўтказилаётган Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2016. – Б. 111-114.

2. “Меҳробдан чаён” романида қўлланган айрим мақол ва маталларнинг услубий-бадий хусусиятлари // Ўзбекистонда филология илми ва таълими: натижа ва истиқбол. – Самарқанд, – 2016. – № 3. – Б. 99-101.

3. Абдулла Қодирийнинг ибора, мақол ва маталларнинг қўллаш маҳорати // Тил ва адабиёт масалалари: Филология фанлари доктори, профессор Бегматов Эрнест Азимович таваллудининг 80 йиллигига бағишланган республика олий ўқув юртлари профессор-ўқитувчиларининг илмий мақолалари тўплами. – Наманган, 2016. – № 3. – Б. 116-118.

4. “Меҳробдан чаён” библионими хусусида // Содружество языков: материалы 4-республиканской научной конференции. – Наманган, 2017. – № 1. – Б. 131-133.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya “Kirish”, “Mehrobdan chayon” romanida qoʻllangan fonetik vositalar va soʻzlarning fonetik variantlarining uslubiy xususiyatlari”, “Mehrobdan chayon” romanining semantik va uslubiy xususiyatlari”, “Mehrobdan chayon” romanida tarixiy, milliy kolorit va uning lisoniy ifodalanishi” kabi uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

1-bob. “Mehrobdan chayon” romani va uning fonetik, morfologik xususiyatlari

1.1. “Mehrobdan chayon” romanining o`zbek adabiyoti va o`zbek adabiy tili takomilidagi o`rni

O`zbek adabiyoti tarixida o`zining yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan roman, qissa, hikoya, felyeton va adabiy lavhalari bilan xalqimiz qalbiga kira olgan Abdulla Qodiriy o`zbek adabiyoti va o`zbek adabiy tili ravnaqiga katta hissa qo`shdi. Yozuvchining mashhur asarlari “O`tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari va “Obid ketmon” qissasidir.

Abdulla Qodiriy tarixiy mavzudagi ijodini davom ettirib, “O`tgan kunlar” asaridan so`ng ikkinchi yirik asari “Mehrobdan chayon” romanini 1928-yilning fevralida yozib tugatadi. Roman 1929-yili Samarqandda bosilib chiqadi. “O`tkan kunlar”dan so`ng qisqa vaqtda “Mehrobdan chayon”ning yozilishi yozuvchining ulg`aygani, g`oyaviy-estetik takomili mahsuli edi.

Abdulla Qodiriyning asarlari, jumladan, romanlari jahon miqyosida tez tarqaldi. “O`tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari rus, ozarbayjon, latish, litva, tatar, turkman, uyg`ur, qirg`iz, qozoq, qoraqalpoq, arab, italyan, ingliz, nemis, turk va boshqa tillarga tarjima qilinib qayta-qayta nashr etilib kelinmoqda.

Sobir Mirvaliev qayd etishicha, Abdulla Qodiriy arab yozuvchisi Jo`rji Zaydonni o`ziga ustoz deb bilgan.

A.Qodiriy iste`dodi, mahorati va tasvirlash uslubi jihatidan ustozidan ancha yuqoriga ko`tarildi. Agar J.Zaydon tarixni tavsif etish yo`lidan borsa, A.Qodiriy uni tasvirlash, ko`rsatish yo`lidan bordi. U J.Zaydon kabi tarixchi-xronikachi emas, yozuvchi-san`atkor sifatida maydonga chiqdi. Bu yozuvchining novatorligi edi.¹

¹ Мирвалиев С. Роман ва замон. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 11.

A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida Turkiston xalqlarining XIX asrning birinchi yarmidagi hayoti, zulmga qarshi kurashi, yurtning oʻzaro nizolar tufayli inqirozga yuz tutishi yoritilgan.

Hayotiy material va manbalar asosida yaratilgan “Mehrobdan chayon” romanining yetakchi maqsadi jamiyat manzaralarini tasvirlashdir. Yozuvchi asar yaratishdagi tayyorgarligi haqida shunday yozadi: “Men materiallarni oʻrganish mahallida asarni qaysi xilda yozish haqida bosh qotirib yuraman. Shuning natijasida men oʻzimcha asarimning juda ham taxminiy bir sxemasini tuzib olib, keyin ishga tushaman. Shunday sxema boʻlmasa, hech qachon yozuvga oʻtira olmayman”.¹

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida Qoʻqon xoni Xudoyorxon va uning saroyidagi adolatsizlik, buzuvchiliklar, xon saroyining fisq-u-fasod va fitna uyasi ekanligi ochib tashlangan. Romanning mavzusini yozuvchining oʻzi quyidagicha izohlaydi:

“Turkiston feodallarining keyingi vakili boʻlgan Xudoyorxonning oʻz xohishi yoʻlida dehqon ommasini va mayda hunarmand-kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin-qizlarini istaganicha tasarruf etishi, bunga qarshi keluvchilarga, tilasa kim boʻlmasin, rahmsiz jazo berishi – romanning mavzuidir. Xudoyorning bu yoʻldagi birinchi istinodgohi boʻlgan ulamolar, ularning ichki-tashqi ahvoli, axloqi, madrasa va oila hayoti, ulamoda insoniy his bitganligi va qolgani ham ifloslik pardasi ostida sezilmas darajaga yetganligi mundarija sigʻdirgan qadar bayon qilinadi. Bular – romanning nomargʻub – manfiy qahramonlari.

Ikkinchi tarafda – mazkur qora kuchlarga qarshi “tuban” sinf – kambagʻallar, ularning xonlik tuzilishiga, qora kuch – ulamo alayhiga chiqishi, mehnatkash kambagʻallarning axloqi, sajiyasi oilasi va bir-biriga aloqasi, samimiyati”².

“Mehrobdan chayon” oʻzbek adabiyoti tarixidagi eng mashhur va mazmunli romanlardan biridir. Abdulla Qodiriy maʼnaviyatidan sizib chiqqan bu totli

¹ Ёзувчи ўз ижоди тўғрисида. – Абдулла Қодирий. Кичик асарлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969.

² А.Қодирий, “Мехробдан чаён”, Тошкент, ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1959, 5-бет. Бундан кейинги кўчирмалар ҳам шу манбадан олинди, фақат бетларини қавс ичида кўрсатиш билан чегараланамиз.

chashma yetmish yildirki tashna qalblarga orom bag'ishlab keladi. Horg'in ruh-larga yengillik, g'amg'in ko'ngillarga surur va mahzun dillarga zavq ulashadi.¹

Umuman olganda, “Mehrobdan chayon” romani g'oyaviy mazmun jihatidan ham, badiiy mahorat jihatidan ham baquvvat, go'zal asar.²

Mashhur adabiyotshunos olim Umarali Normatov ta'biri bilan aytganda, “Mehrobdan chayon” hayot haqiqatini “orttirmay va kamitmay” o'z holicha jamiki tovlanishlari bilan gavdalantirgan, xarakterlar olamini, ruhiyatini o'ziga xos ohang-lar, bo'yoqlar vositasida teran ifodalab bergan o'xshashi yo'q badiiy obidadir.³

1958-yildan boshlab Abdulla Qodiriyning qutlug' nomi, asarlari xalqqa qaytarila boshlandi. U oqlangandan keyin u haqida va asarlari bo'yicha tadqiqotlar va risolalar yaratildi. Jumladan, adabiyotshunoslik sohasida M.Qo'shjonovning “Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati” (1966), “Qodiriy – erksizlik qurboni” (1992), “O'zbekning o'zligi” (Qodiriyga armug'on) (1994), A.Alievning “Abdulla Qodiriy” (Adabiy-tanqidiy ocherk, 1967), F.Nasriddinovning “Adibning yo'li” (1971), “Mahorat jilolari” (Abdulla Qodiriy ijodiyoti) (1974), M.Sultonovanning “Yozuvchi uslubiga doir” (1973), I.Mirzaevning “Abdulla Qodiriy” (1975), O.Sobirovning “Sarchashma adib ijodida” (1975), “Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi” (1977), Habibulla Qodiriyning “Otam haqida” (1974-1983), Murodxon Abdug'afforning “Iste'dod jozibasi” (Abdulla Qodiriy hikoyalarining badiiyati va ularning qiyosiy tahlili) (1992), U.Normatovning “Qodiriy bog'i” (Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqida, 1995), “O'tgan kunlar” hayrati (1996), X.Lutfiddinovanning “Gullarning ra'nosi” (1997), Bahodir Karimning “Qodiriy qadri” (2003), S.Mirvalievning “Abdulla Qodiriy” (2004) kabi ilmiy risolalari yaratildi.

¹ Баҳодир Карим. Мувозанат – талқин таянчи. Қодирий қадри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. – Б. 36.

² Мирзаев С. Ўзбек романчилиги. – Самарқанд, 1998. – Б.52.

³ Жамоа. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 160.

Abdulla Qodiriy asarlari tili bir qancha ilmiy ishlarga lingvistik tadqiq manbai bo'lgan. X.Doniyorov va B.Yo'ldoshev, Y.Tojiev kabi olimlar va ularning shogirdlari o'z izlanishlarida adib ijodiga jiddiy e'tibor qaratishgan¹.

O'zbek tilshunosligida yozuvchi asarlarining til xususiyati xususida so'z ketganda dastlab X.Qahhorovning nomzodlik dissertatsiyasini tilga olish zarur.² Olima bu ilmiy ishida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Obid ketmon" asarlarida qo'llangan frazeologizmlarning paydo bo'lish sabablarini, muallifning nutqigagina xos iboralarni chuqur tahlil qilgan, tasnifini bergan.

Mustaqilligimizdan keyingi ishlar sirasiga Z.T.Choriyeva hamda L.O.Djalolovalarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Z.T.Chorieva nomzodlik dissertatsiyasida³ adib romanlaridagi maktublarni lug'aviy-ma'noviy va uslubiy jihatdan tahlil qiladi. Maktublarni matn mazmunidan kelib chiqqan holda tasniflab va lingvopoetik nuqtai nazaridan o'rganib, yozuvchining badiiy mahoratini ko'rsatishga, maktub janri orqali o'zbek tili uslubining rivojini, adabiy til, nutqiy hodisalarning lisoniy asoslarini ochib berishga harakat qilgan.

L.Djalolovanning Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanining lingvistik tadqiqiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi⁴da Abdulla Qodiriyning badiiy til mahorati, hozirgi o'zbek tilining shakllanishidagi xizmatlari hamda "O'tkan kunlar" romani tilining fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari tadqiq qilingan. Adibning noverbal vositalarning lisoniy ifodalaridan foydalanish mahorati, o'zbek tilining grammatik imkoniyati va o'zbek xalqining nutqiy madaniyatini yuksaltirishdagi xizmatini ko'rsatuvchi bu ish ham Abdulla Qodiriyning badiiy til mahoratini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Adib badiiy nutqining leksik, lingvopoetik xususiyatlari tadqiqi borasida O'.Lafasov tadqiqotlari ham e'tiborga molik. Tadqiqotchi romanlardagi leksik

¹Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Т.: Ўздавнашр, 1962; Мирзаев И. Абдулла Қодирий эволюцияси. – Т.: Фан, 1972; Тожиев Ё. ва б. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1974; Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994.

²Каххарова Х. Фразеология Абдулла Кадыри: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1985.

³Чориева З.Т. Абдулла Қодирийнинг "Ўткан кунлар" романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т., 2006.

⁴Джалолова Л.О. Абдулла Қодирийнинг "Ўткан кунлар" романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т., 2007.

birliklarning “iqtisodiyotga doir umumiy atamalar”, “oliq-soliqqa oid atamalar”, “pul-mablag` bilan bog`liq atamalar” kabi turlarini tahlil qiladi. O`. Lafasov boshqa bir maqolasida adibning izohlovchilarni qo`llash mahorati yuzasidan fikr yuritadi.¹

X.Qodirova tomonidan Abdulla Qodiriy asarlarida qo`llangan evfemizm va disfemizmlar tadqiq etilgan. Dissertatsiyada adib asarlariga xos evfemizm va disfemizmlarning lisoniy tasnifi berilgan, adibning evfemizm va disfemizmlardan foydalanish mahorati yoritilgan.<sup>2</sup> Biroq “Mehrobdan chayon” romaning lisoniy xususiyatlari to`liq monografik aspektda o`rganilmagan.

¹ Лафасов Ў. Қодирийнинг изоҳловчиларни қўллаш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006, – № 3. – Б.70-72.

² Қодирова Х.Б. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмлардан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 24 б.

1.2. Romanning fonetik va morfologik xususiyatlari

Badiiy nutqda tilning fonetik-fonologik birliklari va fonetik hodisalar ham uslubiy mohiyati bilan alohida oʻrni tutadi. Aniqrogʻi, ayrim pozitsion va kombinator oʻzgarishlar soʻzlarning fonetik variantlari qahramonlar nutqini individuallashtirishga, ayrim qahramonlarga xos boʻlgan oʻziga xosliklarni, mahalliy, milliy, tarixiy kolaritni ifodalashga xizmat qilishi bilan asar tilida uslubiy vazifa bajaradi. “Mehrobdan chayon” romanida ham mana shunday holat yorqin kuzatiladi.

Tasvirdagi oʻziga xoslik va nozik didlilik Abdulla Qodiriygagina xos boʻlgan noyob qobiliyatdir. Adib oʻzining “Mehrobdan chayon” romanida asar oʻquvchilarga yanada manzur boʻlishi uchun lingvopoetik unsurlardan keng foydalanган holda voqealarni yoritgan. U tilning fonetik vositalaridan ham oʻrinli foydalanган.

Yozuvchi asar voqealarini tasvirlashda tovushlardan, jumladan, unli tovushlardan ham oʻrinli foydalangan. Masalan, *i* unli tovushini takror qoʻllash orqali harakat davomiyligini ifodalagan:

Qoʻy desam boʻlmadi, bir poy kafshimni ikavi huzur qili-i-ib yeb yatipti!
(83-b.)¹

Boshqa oʻrinda esa yuklama vazifasidagi *a* unlisini takrorlash orqali qoʻrquv ifodasini yorqin aks ettirgan: *Manavi bekingning koʻziga qara... voy-voy-a-a, qoʻyvor!* (84-bet)

Abdulla Qodiriyga xos yana bir mahorat shundaki, u bogʻinlar takori, unlilar choʻziqligi asosida turli hayvonlarga xos tovush hodisalarini jonli ifodalashga erishgan:

Shahar podasi qaytib, tevarakdan sigir va buzoqlarning ma-a-a-mu-u-u-lari, qoʻzichoq va qoʻylarning ba-a-a-bu-u-u-lari eshitilib turardi. (107-b.)

Abdulla Qodiriy xalq qiziqchilik sanʼatining nozik sirlarini yaxshi bilgan, shu bois oʻz romanida uni voqealar tizimiga singdirib yubora olgan. Oʻzbeklar oʻzining boy va qadimiy milliy sanʼatlariga ega, ularning qadrlaydigan xalqlardan

¹ Barcha parchalar quyidagi manbadan olingan. Қодирий А. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Sharq, 2015. – 288 б.

hisoblanadi. Bu holat dostonlarimizda ham to'raligicha o'z aksini topgan va har doim o'zligimizni namoyon etib turadi.

Alliteratsiya termini grekcha bo'lib, nutqda tovushlarning mos kelishidir. Alliteratsiya she'riy nutqda misralar, undagi so'zlar hamda bo'g'inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishi asosida vujudga keladi.¹ Adib o'rni bilan alliteratsiya namunalaridan ham o'rinli foydalangan. Quyidagi **b** undosh tovushi va **o'** unli tovushi alliteratsiyasi ana shunday qiziqchi timsollar tasvirini ta'sirchanligini ta'minlagangan:

Barchaning ko'zi boyag'i bordonliq uyga tushti. Bordon ichidan uzun bo'yliq, qora soqolliq, ustida malla to'n, simobi bo'z sallasining peshini bir qarich osiltirg'an bir kishi chiqdi... (163-b.)

Yoki:

Bir vaqt bordon eshigidan banoras to'n kiyib, o'ng qo'lig'a aso ushlagan va so'l qo'lida adras ro'molig'a tugiklik kitob ko'targan, shayxulislom Valixon to'ra (Zokir-gov) ko'rindi. (169-b.)

Abdulla Qodiriy ijodida ayrim o'rinlarida “qo'sh undoshlik” (geminatsiya) ham kuzatiladi. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati”da mazkur hodisa “*ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi*” sifatida izohlanadi.²

“O'zbek tili morfem lug'ati”da bu hodisani ikki xil:

1. Dastlabki geminanta (tabiiy – birlamchi geminanta) so'zning o'zi qo'sh undoshli bo'lishi: *hakka, vanna, metall, tonna* kabi.

2. Keyingi geminanta (yasama – ikkilamchi geminanta) undosh tovushni turli maqsadlar uchun takrorlanishi: *terakning uchida – terakning uchchida* (ch+ch: ekspressiya – kuchaytirish uchun takrorlangan)³ deb izohlanadi. Adib geminatsiya usuli orqali badiiy asarda qahramonlar ruhiyatidagi xursandlik va xafalik holatlarini tugal tasvirlashga erishgan: *Har holda “habba-habhali” yoki “ha,*

¹ Курунов Д., Мамажонов Ж., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.27.

² Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 143.

³ Гуломов А., Тиханов Н., Қўнғуров Р. Ўзбек тили морфем луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 394.

barakalla” bo`lsa kerak. Chunki bir narsadan xursand va rozi bo`lg`anida aksar “habba” deb yuboradir. (7-bet)

Abdulla Qodiriy undoshlar takrori orqali qahramonlar harakatidagi noqulaylik, davomiylilik kabi holatlarni ta`sirchan usulda ifodalagan:

*“Mirzo Anvar ham kelgan ekan, **xrrr?**” deb qo`ydi;*

*Yana **gurr** etib kulib yubordilar. (82-bet)*

Asarda o`zbek adabiy tiliga xos so`zlarning tarixiy variantlari, jumladan, jonli so`zlashuv nutqiga xos so`z variantlari alohida o`rin tutadi. Bir xil ma`noni ifodalaydigan, fonetik va morfologik jihatdan farqlanuvchi ikki va undan ortiq so`z shakllari **so`z variantlari** hisoblanadi.¹ Variantdorlik ham tilning boyligi bo`lib xilma-xil nutqiy imkoniyatlarni vujudga keltiradi:

*1. **Milla** bo`lsa ham, xashaki millalardan-da. (68-b.)*

2. Go`yo bu kunlarda benihoyat **ichkulukdan** so`ng bosh og`rig`i davrini kechirar edi. (77-b.)

*3. Uxlab **qog`an**, – dedi To`xtabibi va borib dastgoh yonidag`i bo`shag`an naychalarni yig`ib oldi. (189-b.)*

Gaplarda *mulla, ichkilik, qolgan* so`zlarining fonetik va morfologik variantlari qo`llangan.

So`z variantlarini bir-biridan farqlanishiga ko`ra asosan ikkiga bo`lish mumkin:

a) fonetik variantlar;

b) morfologik variantlar.

So`zning fonetik variantlari so`zlarning tovush tomondan farqlanishi asosida hosil bo`ladi.

Fonetik so`z variantlariga xos eng muhim xususiyatlardan biri, variantlardan birining adabiy tilga, ikkinchisining dialekt yoki oddiy so`zlashuvga xosligidir:

*Solih maxdum bu kun odatdan tashqari **yeshilib** ketdi, masjiddan chiqib to`g`ri qassobning oldig`a bordi. (6-b.)*

¹ Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умуркулов Б. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. — Тошкент: Фан, 1988. — Б. 111.

*Ammo hozir uning ko`ngliga kelgan masala erining chiqim vajiga favqulodda **yeshilib** ketishi edi. (7-b.)*

*Solih maxdum **yeshinib** kelib, ona-bolaning ustida to`xtadi. (7-b.)*

Ushbu misolda *yechmoq* fe`lining tovush almashinuvi asosida yuzaga kelgan *yeshmoq* fonetik variantlarining turli grammatik shallari qo`llangan.

So`zlashuv uslubiga xos mahalliy kolaritni berish uchun ayrim so`zlarning ba`zi o`rinlarda fonetik varianti beriladi:

*...bir tangalik go`sht, sakkiz pullik piyoz olib **havlisiga** keldi. (6-b.)*

Asarda o`sha davr adabiy tilining fonetik xususiyatlarini yorqin, ishonarli ifodalash uchun quyidagi kabi fonetik so`z variantlarida foydalanilgan:

1. ***Birar** joydan kelim bo`lmag`anlikdan bu oila ko`b tanglikka tushib oxirida Solih maxdum tahsilni tark etishka, qorin to`ydirarliq bir kasb izlashka majbur bo`ldi. (12-b.)*

2. *Maxdumning havlisi uch **qabat** edi. (24-b.)*

3. *Bunga ham **burodarim** mirzo Anvarning muhabbati majbur qildi. (26-b.)*

4. *Ko`b yaxshi, **nomzadlar** bordir? (26-b.)*

5. *Darvoqi, Anvarga ko`b mehnatim singgan, - dedi maxdum **mahtang`ansumon...** (27-b.)*

6. *Mehmonning vazifasi, dedi Ra`no javoban, – izzati bilan o`lturish va oldig`a qo`yg`an narsani **maxtab-maxtab yeyishdir...**(33-b.)*

7. *Agar o`lmasam, shu do`ndiq qizimni berib, Anvarni o`zimga **kuyav** qilaman. (33-b.)*

8. *Ulug` dargohlaringizga shu **yatim** bolaning umri zoe bo`lasmikin, o`qushi **juvanmarg** qilinmasmikini, deb keldim. (48-b.)*

9. *...sening qo`ling nimaga tekkan bo`lsa, men o`shani **darrav** sezaman. (63-b.)*

Keltirilgan misollarda hozirgi *biror*, *qavat*, *birodar*, *nomzod*, *maqtangan*, *maqtatib-maqtatib*, *yetim*, *juvonmarg*, *darrov* so`zlarining jonli so`zlashuvga xos fonetik variantlari qo`llangan.

Asarda hozirgi o`nlisi o`rnida *a*, *v* undoshi o`rnida *b*, *t* undoshi o`rnida *d* undosh tovushlarini qo`llash asosida yuzaga kelgan so`zlarning fonetik variantlari ko`p kuzatiladi:

*Nigor oyim ham shoshilingiradi, uyga kirib, sandiqning **kalidini** topolmay to`rt tomonni izlar, maxdum dahlizdan turib uni koyir edi. (89-b.)*

*– Xay, **ahmaqsan**, – dedi maxdum entikib, – Anvar yorlig`olg`an, so`yinchiga yigit keldi... (89-b.)*

*Maxdum **darboza** yonida muborakbodchi mudarisslardan birini ikki buklanib ta`zim qilg`an holda uzatar edi. (92-b.)*

*– **Kesatuq** hunaring esingdan chiqdimi, deb turg`an edim. Har nachuk yodingda ekan. Tag`in xo`sh? (104-b.)*

Bu ixtiyoriy ravishdagi hozirlikdan so`ng, “mamlakatimdagi har bir xonadon bitta **ketman** va bitta mardikor bersin!” deb istisnosiz umumiy bir farmon ham bo`ldi. (116-b.)

– Yo`q, taqsir, – dedi dehqon, – taqsirim shu **qovozni** pitib berdilar, tanopchig`a ko`rsatadug`an qovoz ekan. (118-b.)

*Qoramtil bulutlardan quyiroqda olaqrg`alar qanot qimirlatmay sayohat qilar va onda-sonda **yong`ur** qatralari tomchilar edi. (217-b.)*

Romanda til taraqqiyoti jarayonida hozirgi o`zbek adabiy tilida boshqacha shakl olgan ayrim so`zlar ham kuzatiladi:

*Masalan, tog`lardag`i ohular, o`rmonlardag`i to`tilar, chamandagi bulbullar ham yolg`iz emas, **jufay** yashaydirlar... (112-b.)*

*Biz **ikav** yoshliqdan birga yashab kelamiz, oramizda maxfiy sirlarimiz yo`q va bizning o`z aro sirlarimizga voqif bo`lg`an chet kishilar ham yo`q. (112-b.) Bas, shu holda biz **ikav** nega xafa bo`layliq, Ra`no? (221-b.)*

U qadar keng bo`lmag`an sahn ostig`a **xisht** to`shalgan, havli yuzida to`rt-beshta qizil sholdan ko`ylak va boshlarig`a sarig` sholdan ro`ymol o`rab... (123-b.)

*– **Budana** bersangiz sho`xliq qilmayman. (126-b.)*

*Majoziy aralash – ajralish emasdir, chunki biz bir-birimizga majoziy bog`lanmag`anmiz, haqiqiy bog`lanishni esa qat etish ifloslar **uhdasidan** kelmas.*

Raqibni bu qadar jasoratda ko`rgan Xudoyorning **kiprak** ostlari uchib, soqol tuklari silkindi va biroz so`z topolmag`andek tamshanib turdi. (277-b.)

*Xayr, mulla, Solih, ko`rguncha **Xudoyning panohiga**. (152-b.)*

*Ra`no yuzini chetka o`gurib, boshidag`i **ro`ymoli** bilan yuzini artidi, uzun entikdi. (219-b.)*

*Yuroridagi gaplarda hozirgi **juft, ikkov, g`isht, bedana, uddasidan, kiprik, xudo, ro`mol** so`zlarining tarixiy variantlari qo`llangan.*

Morfologik variantlarda variantdosh so`zlar morfologik belgilari bilan farqlanadi:

*1. Balki quloqlarig`a **chatilg`an** bo`lsa kerak, ismim Sultonali mirzo. (26-b.)*

2. Qarshi quda bo`lmoq uchun **qizliq** va **o`g`ulliq** havlini uchratish va buning ustiga “nasl-u nasabda tekislik”, olinadig`an kelinning silliqqina bo`lishi – ana shunday mushkilotlar orqasida ikki yil chamasi Na`imaning umri sarg`ayib o`tdi. (12-b.) kabi.

*Gaplarda hozirgi o`zbek tilidagi sifodosh shakli **-gan** affiksining **-g`an, -lik** mavhum ot yasovchi qo`shimchaning **-liq** tarixiy variantlari qo`llangan.*

Romanda harakatning kuchsiz, kam va sustligini bildiruvchi, tavsiflovchi modal ma`no ifodalovchi **-in, -imsa, -inqira** kabi grammatik shakllar faol qo`llangan:

Ra`no **qizarinib** onasig`a qaradi, yana mimit qo`lni o`pishka mashg`ul bo`ldi. (7-b.)

*Solih maxdum **kulimsigan** ko`yi dahlizga yurub bordi va oyog`ini kafshiga uzatdi. (7-b.)*

*Ra`no tabassum bilan javob berdi va unda biroz **qizarinish** belgisi bor edi. (105-b.)*

Morfologik variantlarning vujudga kelishi tilning lugʻat tarkibini boyitib boruvchi manbalardan biridir. Morfologik variantlarga xos xususiyatlardan biri ularning asosan adabiy tilga xosligidir.¹

*Nigor oyim **hozirg`ina** qizlarni ozod qo`yub, ko`krak bolasini **bag`rig`a** olg`an edi.* (6-b.)

*Solih maxdum bu kun odatdan tashqari yeshilib ketdi, masjiddan chiqib to`g`ri qassobning **oldig`a** bordi.* (6-b.)

Ushbu misollarda esa *-gina* yuklamasi va *-ga* jo`nalish kelishigi qo`shimchasining adabiy tilga xos *-g`ina* va *-g`a* shakllaridan foydalanilgan.

Darhaqiqat, er-u xotin oralarida o`tkan ikki kalima so`z shu oila gulshanida o`skan Ra`noning istiqbolini ochiq belgilar edi. (8-b.)

*Yuqoridag`i ruh tushish davrida ul moziysidag`i kabi erkalik, amr-u farmon va shuhrat uchun **qayg`irg`an...*** (77-b.)

– *Nasim bilan Anvar juda yaqin do`st, bir-birini **onglag`uchi** sirdosh o`rtoq edilar.* (52-b.)

Yuqoridagi misollarda *-gan* sifatosh qo`shimchasining *-kan*, *-g`an*, *-guvchi* harakat nomi shaklining *-guvchi* variantlari qo`llangan.

*O`rda qo`rg`onining tashqari aylanasi (to`rt tomoni) ajoyib gulzorlar, anvoi **mevalik** daraxtlar bilan ziynatlangan.* (119-b.)

Ushbu misollarda *-li* va *-lik* so`z yasovchi qo`shimchalarining sinonimligini kuzatish mumkin. Solishtiring: *mevalik daraxt-mevali daraxt.*

*Boqqa kirilgandan keyin, to`g`rida yangi o`rdaning darbozasi, muhtasham muzayaqakor toq va ravoqlar ko`zni **qamashdirar**, kishi go`yo o`zini xon huzurida, istibdod salobati ostida sezar...* (119-120-b.)

Ayrim o`rinlarda fonetik va morfologik variantlarning aralsh qo`llanishi ham kuzatiladi:

*Bu kun **qo`g`urma sho`rbag`a**, – dedi Ra`no kulgi ichida, – qattig` non to`g`rab yeysiz, jaz o`rnig`a shalg`am chaynaysiz.* (33-b.)

¹ Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умуркулов Б. Ўша асар, 116-б.

Parchada *qovurma*, *sho`rva* so`zlarining, -ga jo`nalish kelishigi qo`shimchasining variantlari qo`llangan.

Adib bir necha o`rinda takror asosida hosil qilingan xexelagan kulgu tovushini ifodalovchi *xe-xe-xe*, *xa-xa-xa* undov so`zlarini qo`llash orqali timsol-larga xos ruhiy holatni obrazli ifodalashga erishgan:

Xe-xe-xe! – deb kuldi Zokir-gov. – Sizlar har kun minglab kishini o`rda tegida ma`tal qo`yg`anlaringizda, men bir nafas ma`tal qo`ysam, *xe-xe-xe!*.. (82-b.).

Yoki:

– *Pari yigitga oshiqmisan? Xe-xe-xe!* – Nega kulasan, Gulshan opa? (146-b.)

Yoki:

– *Va – xa-xa-xa!* – deb kulib yubordi Qumri. (147-b.)

Adib badiiy timsollarning dialogik nutqida so`zlar, xususan, modal, undov so`zlar takrorini qo`llab so`zlashuv nutqiga xos xususiyatlarni yorqin ifodalashga erishgan:

– *Muborak, Muborak! Borakallo, Mirzo Anvar!* – dedi. (86-b.)

– *Hayf-da, hayf,* - dedi maxdum adras to`nni salmoqlab ko`rib. Boyag`i shoshilish holati hozir yo`q, ammo yuzidan achinish vaziyati bor edi. – *Uvol-da – uvol, qizim ipagi juda quyug` ekan* (90-b.)

Yoki:

Safar bo`zchini maxdum to`xtatdi:

– *Xo`sh, xo`sh, uka,* – dedi Safar bo`zchig`a. (93-b.)

Yozuvchi affikslarning variantdorligidan o`rinli foydalangan:

... muhri **bahaybatlari** bilan qalashdirib beradirlar va Madalixon to`y va tomoshalar bilan murod-maqsadig`a yetadir... (3-bet)

... ulamoyi kirom ham darhol **botahorat-betahorat**, masalani eshitar-eshitmas fatvo yozadilarkim... (4-bet)

Kezi kelganda maxdumning yozlik kiyimlarini ham bir sidra aytib ketaylik/ (6-bet)

Anvar yonidag`ilarning bu o`zagarishlaridan siqilg`ansumon har bir arizani ko`rib chiqish orasi ularga qarab olar edi. (82-b.)

– Sen eshitdingmi, yo`qmi, bilmadim, ular ikkimizni juftlashtirmakchi bo`lib, bu kun mendan kishi orqaliq to`y vaqtini belgilashni so`ratqan edilar, men ertaga javob bermakchi bo`ldim... (113-b.)

Saj arabcha so`z bo`lib, “bulbul, to`ti, qumri kabi qushlar ovozinig uyg`unlashib kelishi, o`lchovli” degan ma`noni anglatadi. Saj mumtoz adabiyotdagi lafziy san`at, bir yoki bir necha gaplardagi ayrim bo`laklarning yo vaznda, yo qofiyada, yo har ikkalasida mos kelishi. Ilmi badi`ga oid ayrim manbalarda saj nasrga xos deyilsa, boshqalarida ham nasrga, ham nazmga xosligi e`tirof etiladi. Shunga qaramay sajni nasrga xos deb bilish, uni qofiyali nasr sifatida tushunish kengroq ommalashgan va bu ilmiy jihatdan to`g`riroqdir. Adib asarda sajdan ham o`rinli foydalangan:

Soniy, arzi bandaligimiz shulki, biz darbadari devona, aqlu xushdin begona, xalq gilida afsona, elkezar g`aribona qullaringiz dardu alam yutar erdik, qalamravingizning bir chetidan o`tar erdik. Dedilarkim, bu diyorning xoqoni, Iskandari soni, zaru (evar) koni, elning oshu noni, ya`ni saxovatda Hotam, qahri kelsa motam... g`urabo (g`ariblar) yoridir... (165-bet)

Deyarli bir sahifa Qiziqchi Zokir-gov nutqini, ya`ni uning duosini sajda berilishi, albatta, adib mahoratidan dalolatdir. Yozuvchi devona, afsona, g`aribona, yutar, o`tar, xoqoni, soni, noni, Hotam, motam kabi ohangdosh so`zlari orqali sajning go`zal namunasini yaratgan.

Qisqasi, adib o`zbek tilining fonetik-fonologik, morfologik va leksik vositalaridan qahramonlar nutqini individuallashtirishda, asarga xalqona ruh bag`ishlashda mohirlik bilan foydalangan.

Bob bo'yicha xulosalar

1. “Mehrobdan chayon” o'zbek adabiyotida “O'tkan kunlar”dan keyin yaratilgan romanchilikning eng yaxshi namunasidir.

2. “Mehrobdan chayon” romanida Turkiston xalqlarining XIX asrning birinchi yarmidagi hayoti, zulmga qarshi kurashi, yurtning o'zaro nizolar tufayli inqirozga yuz tutishi qalamga olingan. Romanda O'zbekiston xalqlari tarixining so'nggi xonliklar davri voqealari davrning sotsial-sinfiy ziddiyatlari bilan yoritilgan.

3. Tasvirdagi o'ziga xoslik va nozik didlilik Abdulla Qodiriygagina xos bo'lgan noyob qobiliyat bo'lib, adibning “Mehrobdan chayon” romani o'zbek tilining lisoniy imkoniyatlari va boyligini ko'z-ko'z qiluvchi noyob, betakror asardir.

4. Adib tilning barcha, jumladan fonetik va morfologik vositalaridan, xususan, alliteratsiya, geminatsiya, unlini cho'zish, so'z takroridan hamda so'zlarining fonetik va morfologik variantlaridan ham o'rinli yuksak mahorat bilan foydalanган.

2-bob. “MEHROBDAN CHAYON” ROMANINING LEKSIK-SEMANTIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

2.1. Adibning sarlavha yaratish mahorati va sarlavhalarning lingvopoetik xususiyatlari

Sarlavha asarning ham mazmunan, ham gʻoyaviy, ham badiiy koʻzgusidir. Sarlavhalar yozuvchining ijodiy tafakkuri, tajribasi va badiiy mahorati mahsulidir.

Sarlavha sahifada yashaydigan, matn mohiyatini ifodalaydigan unvon – nom sifatida oʻziga xos qonuniyatlarga ega.¹

Har qanday sarlavha matnning mazmuni, gʻoyaviy maqsadi, syujeti va kompozitsion qurilishi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, u matnda izohlanishi, asoslani-shi, yoritilishi lozim. Shuning uchun ham sarlavha uchun purmaʼnoli, ixcham, taʼsirchan, diqqatni jalb etuvchi til birliklari tanlanadi.

Sarlavha atash vazifasidan tashqari asar mavzusi haqida axborot beradi, yaʼni asarning mavzusi va gʻoyaviy mazmunini ham oʻziga xos tarzda aks ettiradi. Demak, reklamalilik, koʻrgazmalilik va taʼsirchanlik kabi xususiyatlar ham sarlavhada mujassamlashgan boʻladi. Sarlavha badiiy asar mavzusini ifodalash bilan birga maʼlum ekspressiv-stilistik vazifani ham bajaradi. Bu Abdulla Qodiriy yaratgan sarlavhalarda ham kuzatiladi.

Abdulla Qodiriy sarlavha yaratish bobida ham yuksak iqtidor va mahoratga ega boʻlgan. Bu “Mehrobdan chayon” bibliyonimida ham yorqin kuzatiladi.

“Mehrobdan chayon” bibliyonimi tuzilishiga koʻra otli birikma shaklida boʻlib, ikki otdan, yaʼni *mehrob* va *chayon* soʻzlaridan tuzilgan. Mazkur soʻz birik-masining tuzilishi oʻzbek tili uchun xos emas.

Bu haqida mashhur shoir va adib Erkin Vohidovning tahlillariga eʼtibor qaratamiz. E. Vohidov shunday yozadi: “Ochigʻini aytish kerak, lugʻat boyligida bizdan ustun, sarfu nahvi biznikidan mukammal tillar bor. Abdulla Qodiriy

¹ Абдолимова С. Сарлавҳа матн мазмунининг ифодаси сифатида // А. Нурмонов таваллудининг 60 йиллиги-га ўтказилган илмий-амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2002. – Б. 172-173.

mehrobdan chayon iborasini ruscha shakldan olgan. O'zbekchada *mehrobdan chiqqan chayon* bo'lishi kerak edi. Biz hech vaqt qishloqdan odam yoki tandirdan patir demaymiz. Qishloqdan kelgan odam, tandirdan uzilgan patir deymiz. Lekin so'zning eng yaxshisi eng qisqasi bo'ladi. Rus tilida shakl qisqaroq va soddaroq bo'lgani uchun Qodiriy boboga ma'qul kelibdi. Ulug'lar qo'ygan qadam albatta o'zining izdoshlarini topar ekan. *Mehrobdan chayonga taqlidan yon daftardan ko'chirma, qishloqdan xushxabar, yaxshidan ibrat* kabi sarlavhalar qo'yamiz. "*Moziydan sado*" nomli jurnalimiz bor".¹

Demak, Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" sarlavhasini boshqa til uslubiy tajribalaridan mahorat bilan foydalanish asosida yaratish barobarida tilimizga yangi uslubiy yangilikni olib kirdi. Bu ham adibning yuksak iqtidori, fikrlash olami kengligidan bir dalolatdir.

Biblionimning mazmunan ham mag'zi to'q, betakror. Sarlavhaga lug'aviy asos bo'lgan *mehrob* va *chayon* so'zlarining leksik-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratamiz.

O'zbek tilida arabcha o'zlashma *mehrob* so'zi "*masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy*" (namoz shu tomonga qarab o'qiladi), "*taxmon*" kabi o'z ma'nolaridan tashqari, "*biror narsa, joyning to'ri, to'r tomoni*" degan ko'chma ma'noga ham ega.²

Chayon so'zi zoologik "*o'rgimchaksimonlar sinfiga mansub bo'lgan bo'g'im-oyoqlilar turkumiga kiruvchi zaharli hasharot*" ma'nosidan tashqari ko'chma "*tili achchiq, bamisoli chayondek chaquvchi, gazanda (odam haqida)*" ma'nolarida ham qo'llanadi.³ Bizningcha, *chayon* so'zining ko'pma'nolilik xususiyati bundan-da keng, u "*boshqalarga, hatto o'ziga yaxshilik qilgan insonlarga ham yomonlik istovchi va keltiruvchi yovuz, ya'ni gazanda*" semasiga ham ega.

Demak, adib yaratgan mazkur biblionim lo'ndalik, obrazlilik va badiiylik, mazmunan muxtasarlik, tagma'nolilik tamoyillari asosida yaratilgan. Sarlavhaga *mehrob* so'zining "*to'r tomon*", ya'ni "*xalq e'tiqod qilib, sig'inib namoz*

¹ Вохидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: O'zbekiston, 2014. – Б.97.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-ж. – Б. 588.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 4-ж. – Б. 444.

*o`qiydigan masjid mehrobi*” va *chayon* so`zining *“boshqalarga, hatto o`ziga yaxshilik qilgan insonlarga ham yomonlik istovchi va keltiruvchi yovuz, ya`ni gazanda”* ko`chma ma`nolari asos bo`lgan.

Abdulla Qodiriyning boshqa asarlari qatori “Mehrobdan chayon” romani-ning badiiyati, ifoda uslubi ham o`zgacha. Adib asarda Abdurahmon domla boshliq Shahodat mufti, Kalonshoh kabi qora guruhlar, jirkanch niyatli amaldorlar, din ahllari o`zlarining yovuz niyatlariga erishish uchun ig`vo, qabihlik bilan machit-madrassa mehrobidan sof ko`ngilli kishilarga zahar sochishini tasvirlagani bois uni “Mehrobdan chayon” deb atagan. Asarning bunday atalishi ham adibning badiiy maqsadining bir ifodasidir. Romanda “chayon”larning bir necha toifalari mavjud. Ular individual qiyofalari jihatidan bir-birlaridan farq qilsalar-da, mohiyatda birga-dirlar.

Asarda bunga yorqin ishoralar ham kuzatiladi. Sultonali Anvar bilan suhbatda Abdurahmon domla haqida quyidagich fikr bildiradi: *“Bu kaltakesak yutgan chayonning yuragida, Xudoy bilsin, sizga qarshi katta adovat bor”*. (181-b.)

Demak, Abdurahmon domla oddiy chayongina emas, *“kaltakesak yutgan chayon”*.

Romanni ilk bor mutolaa qilyotgan o`quvchi *“Mehrob qaysi ma`noda?”*, *“Qaysi, qanday mehrobdan chayon chiqqan?”*, *“So`zlar o`z yoki ko`chma ma`nodami?”* degan savollarga sahifadan-sahifaga o`tar ekan, javob topadi, “chayonlar”ni anglaydi. Demak, sarlavha o`z shakl-u shamoyili, mazmun-mohiyati bilan betakror bo`lib, kitobxon diqqatini tortadi, jalb etadi, mutolaaga chorlaydi, asarning mazmun-mundarijasidan ma`lumot beradi, qiziqtiradi, asarning butun borlig`iga singib ketgan ezgu g`oya sari kuchli ta`sirlanish og`ushida yetaklaydi, timsollarning xislat-u illatlari xususida dalolat beradi. Bugina emas, yillar davomi-da asar haqidagi bilim-u xotiralarni, badiiy timsollarni saqlanishiga xizmat qiladi.

Adib romanning mavzusi to`g`risida so`z yuritir ekan, “Albatta, men so`ng-g`i marg`ub qahramonlarni o`zbek tarixining hazmi ko`targan qadar o`z holicha olishqa tirishdim. Ularning xon va ulamoga qarshi isyoni tabiiy – sha`riydir.

Chunki undan ortig'i soxta bo'lishi ustiga kitobning qadrini tushurar edi. Shu ikki sinf kurashini tasvir qilish vositasida xon harami, xotinlari, qirq qizlar, tarixiy va etno'g'rafiy lavhalar, o'zbek hayoti, qiziqchilig'i, tanqidchilig'i, o'zbek xotin-qizlari orasidag'i iste'dod, shoirlar, azkiyachilik va boshqa yana ko'b nuqtalarni qamrab olindi", – deb yozadi.¹ Haqiqatdan, yozuvchi ta'kidlagan masalalar romanda aks etganki, bu *"Zulm o'chog'i"*, *"Haram"*, *"Og'acha oyim"*, *"Xonim oyimlar"*, *"Qirq qizlar"* kabi sarlavhalarda ham o'z ifodasini topgan.²

Roman nomida va uning ichki sarlavhalarida ham xuddi ana shu jihat yorqin kuzatiladi. Asarning bir-biriga mavzuiy, mazmuniy va g'oyaviy jihatdan uzviy bog'liq, go'yo zinapoya misoli qadam-qadam asosiy mazmunga yetaklovchi 57 boblarining sarlavhalari ham yuksak badiiyat bilan sayqallangan.

Ulamolar obrazlarini yaratishda san'atkor uslubining yangi qirralari namoyon bo'ladi. "Nomarg'ub qahramonlar"ni xarakterlashda hajviy yo'nalishga xos motivlar, satirik va yumoristik elementlar uchraydi, yozuvchining mazkur romanni yozishdan oldin, bir necha yillar davomida hajviy ijod bilan shug'ullanganligi o'z samarasini beradi.³

Umarali Normatov ta'biri bilan aytganda, "Mehrobdan chayon" hayot haqiqatini "orttirmay va kamitmay" o'z holicha jamiki tovlanishlari bilan gavdalandirgan, xarakterlar olamini, ruhiyatini o'ziga xos ohanglar, bo'yoqlar vositasida teran ifodalab bergan o'xshashi yo'q badiiy obidadir.⁴

"Chayonlar" tinch yotmaydilar. Ularning ikkinchi bir hiylasi natijasida Anvarning sodiq do'sti Sultonali mirzo garovga olinadi va o'lim jazosiga hukm qilinadi. Shu voqealar bayon qilingan qism romanda *"Barimta"* deb atalgan.

Sarlavhaga asos bo'lgan til lug'at tarkibining eskirgan so'zlar qatlamiga mansub *barimta* tarixiy so'zi *"ko'chmanchi qabilalarda bir urug'ga boshqa bir urug' tomonidan yetkazilgan zararni to'lashga yoki haqoratlangan tomonning izzat-nafsini qondirishga majbur qilish maqsadida, garov tariqasida uning*

¹ Қодирий Абдулла. Рўмоннинг мавзуси тўғрисида // Меҳробдан чаён. – Тошкент: Sharq, 2015. – Б.5.

² Қодирий Абдулла. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Sharq, 2015. – 288 б. Барча сарлавҳалар шу манбадан олинган.

³ Мирзаев И. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.52-53.

⁴ Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарофиддинов О. Ўша асар, 160-б.

*mollarini zo`rlik bilan haydab ketish yoki mol-mulkini bosib olish odati*” ma`nosini anglatadi.¹ Shuningdek, bu so`z o`zbek tilida *garov* ma`nosida ham qo`llanadi. O`zbek xalqida ana shunday odatni xalqona qiyoslar bilan ifodalovchi “*Chigiritkadan qo`rqqan ekin ekmas, Barimtadan qo`rqqan – mol yig`mas*” degan maqol ham kuzatiladi. Demak, sarlavhaga barimta so`zining *garov* ma`nosi lug`aviy asos bo`lgan hamda asar mavzusiga doir tarixiylikni ham ifodalashga xizmat qilgan.

Romanning Abdurahmon domlani jirkanch o`tmishi yoritilgan bobi hajviy ruhda “*Iflos bir moziy*” deb atalgan.

Abulla Qodiriy badiiy portret yaratish bobida ham yuksak mahorat va iqtidor sohibidir. U “*Mehrobdan chayon*” romanida Ra`no, Nigorxonim va boshqa qahramonlarning ham tashqi, ham ichki badiiy portretini yaratgan va ana shu timsollar tasviri o`rin olgan roman boblarini ular nomi bilan atagan. Natijada “*Ra`no*”, “*Nigorxonim*”, “*Og`acha oyim*”, “*Nozik*” kabi romanning boblarini atovchi antroponimik bibliyonimlar – sarlavhalar tug`ilgan.

So`z Anvar va Ra`noga ko`chishi bilan tasvir sho`x, shiddatkor, goho ma`yus, ammo latif lirik-romantik jilo kasb etadi. Bu latif ifoda asardagi yana bir yetakchi uslubiy ohang – hajviy-yumoristik tasvir bilan yengilgina tutashib ketadi. Romanda hajviy ifodaning oddiy hazil-mutoyibadan piching, kinoya-kesatiq, zardali istehzo, masxara, zaharli qahqahagacha – deyarli barcha jilolari mavjud. Ammo biror o`rinda bo`lsin kulgi, hajv ma`nodorlikdan xoli emas...<sup>2</sup> Masalan, “*O`pka va hazil*” nomli bobi sarlavhasiga *o`pka* so`zining *gina* ma`nosi asos qilib olingan.³

Ichki sarlavhalarning yana bir badiiy xususiyati shundaki, ularning deyarli barchasi shakl va mazmun uyg`unligi asosiga qurilgan, o`zining ma`no-mohiyati bilan yoritilayotgan mazmun va syujet voqealariga ishora qilish barobarida misoli kitobxonni g`oya sari lisoniy yetaklov vazifasini bajaradi. Masalan, maktabdor Solih domlaga nisbatan doimo “*ulamo va ruhoniylar, pir va ustozlarga berila-*

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б. 168.

² Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарофиддинов О. Ўша асар, 159-б.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-ж. – Б.158.

digan unvon, laqab”ni anglatuvchi *maxdum* soʻzini qoʻllanishi ham oʻziga xos uslubiy mohiyatga ega boʻlib, uning ijtimoiy kelib chiqishini, xasislik, ayyorlik, mol-dunyoga oʻchlik, munofiqlik xislatlari tasvirlangan boblarni aynan *maxdum laqabiga urgʻu berish* asnosida izchilik, mazmuniy ketma-ketlik asosida “*Maxdumning uylanishi va maktabdorligi*”, “*Maxdumning baʼzi xislatlari*”, “*Oila va kishilar bilan muomala*”, “*Maxdumning tahdidi*”, “*Maxdumning baxti*” deya nomlangan. Albatta, sarlavhalardagi *maxdum* nomining takrori ham oʻziga xos uslubiy yuk tashigan.

Romanning har bir ichki sarlavhalari ham oʻziga xos maʼno-mundarijasiga hamda badiiy yukka ega. Masalan, Solih *maxdumning* Anvarni mirzoboshilikka tayinlanishi munosabati bilan osh qildirishi, oshni hammadan ishtaha bilan maqtab koʻp eyishi hamda “*Bu kungi oshing durust, Nigor ... Biroq goʻshtni koʻb solib-san*”, – deya Nigor oyimga tanbeh berishi, Nigor oyimning “*Goʻsht koʻb boʻlsa osh oʻxshaladir*” degan javobiga xasislik va zihnalik bilan “*Xayrul-umuri avsatuho*”, yaʼni “*Har ishning oʻrtasi yaxshidir*” deya maqol keltirishi tasvirlangan boʻlim “*Xayrul-umuri avsatuho*” tarzida nomlangan. (153-b.)

Romanning Raʼnoning chaqirigʻiga koʻra, Anvarni uning uyiga yashirinch borishi, uni uzoq kutishi voqealari hikoya qilingan boʻlimi majoziy maʼnoda “*Maʼshuqa mahbasi*” (231-b.), yaʼni “*Maʼshuqa hibsonasi, qamoqxonasi*” deb nomlangan va shu oʻrinda bunga ishora ham bor: *Maʼshuqa mahbaiga tushkan Anvar oʻlturib chidalmadi*. (235-b.)

Anvarning soxta xat qoldirib, Raʼno bilan qochishi, bu haqida kelishuvga koʻra Sultonali tomonidan xon saroyiga xabar berilishi voqealari qalamga olingan boʻlim kuchli ironiya ruhi bilan “*Doʻstliq “karomati”*” (240-b.) deb atalgan.

Xudoyorxonning Qoʻqonni obod qilish bahonasida “*Oqsaroy*”, “*Bogʻi Eram*”, “*Madrasai oliy*”, “*Dahmai shohon*”, “*Hokim oyim madrasasi*” kabi saroylarning qurdirishi, Ulugʻnahr, Xonarigʻi kanallarini qazdirishi bilan bogʻliq tarzda xalqqa oʻtkazgan zulmi tasvirlangan bob achchiq hajv bilan “*Zulm oʻchogʻi*” deb atalgan.

Asar syujetida keskin voqealar tasvirlangan boblar mazmun ruhiga mutanosib tarzda shaklan va g'oyaviy jihatdan to'q jumlar bilan uzukka ko'z qo'yaganday jiddiy nomlangan. Xon sovchilari maxdum mehmonxonasida o'n besh daqiqa bo'lib, Ra'noni Xudoyorxonga fotiha qilishlari, Nigor oyim ta'biri bilan aytganda, *"sho'rlik Ra'no, bir yuz xotin yoniga yuz birinchi kundosh bo'lib"* borishiga *"xudomuhri"* qo'yilishi voqealari tasvirlangan bob diniy koloritli *"Fotiha muhri xudodir"* paremiyasi bilan atalgan. Shuningdek, *"Aldash uchun bola yaxshi"*, *"Chaqangiz siyqa emasmi?"*, *"Quv odam ekan"*, *"Cho'loq qush"*, *"Qor yo'qotding izmi?"* kabi yumoristik sarlavhalar ham romanga o'zgacha ruh bag'ishlagan.



2.2. Yozuvchining soʻz qoʻllash mahorati

Oʻzbek xalqi xushchaqchaq, nozik kinoyaga oʻch, kulgu-tabassumni yaxshi koʻradigan millatdir. Shu boisdan ham har qanday davrda shoʻx qahqaha koʻngillarni xushnud etib turadi va dillardagi zararli gʻuborlarni yuvib ketadi. Yozuvchining topqirligi bois roman voqealari oʻquvchining diqqat-eʼtiboriga tushdi va adibga ikkinchi bor shuhrat keltirdi.

Badiiy adabiyotning vazifasi inson qalbining, dilining “sirli”, “yashirin” nuqtalarini yoritishdan iborat boʻlsa, badiiy til badiiy mahoratning uzviy boʻlagidir. Til orqali yozuvchi asar qahramonlarining murakkab, oʻziga xos xarakterli xususiyatlari, oʻy-mulohazalari, his-tuygʻularini, shu jumladan, sharoit va muhitning inson ruhiyatiga taʼsirini tahlil qiladi.

Badiiy asar yaratish borliqni badiiy obrazlarda idrok etish va qayta yaratish jarayoni boʻlib, sanʼatkor zimmasiga umumxalq tili boylik va imkoniyatlaridan oqilona hamda unumli foydalanish masʼuliyatini yuklaydi. Zero, umumxalq tili fikriy rang-barang boʻyoq va shakllarda ifodalash imkoniyatini beruvchi bitmas-tuganmas xazinaki, uning javohirlaridan har bir yozuvchi oʻz kuzatuvchanlik qobiliyati, falsafiy mushohadasi va badiiy mahorati doirasi hamda darajasida foydalanadi.

Ijodkorning til sohasidagi sanʼatkorligi birinchi galda shunda namoyon boʻladiki, u keng isteʼmoldagi soʻz va iboralarini mohirona qoʻllash bilan bir qatorda, xalqning ilgʻor, peshqadam vakili sifatida umumxalq tili boylik va imkoniyatlarini muntazam ravishda kengaytira boradi. Oʻz tili materiallari asosida yangi soʻz va iboralar yaratadi, har xil dialoglarda va umuman, ogʻzaki nutqda mavjud boʻlib, adabiy-yozma nutq boyligi hisoblanmaydigan ayrim leksik va frazeologik birliklarni umumxalq sharoitlarida qoʻllash yoʻli bilan ularga yangi maʼno va vazifalar yuklaydi.

Badiiy nutqning kommunikativ va shu bilan birga estetik vazifa bajarishi maʼlum. Badiiy uslubning boshqa uslublardan ajralib turadigan asosiy belgisi uning estetik funksiyasi, obrazlilik va ekspressivligidir.

Til mohiyatan, ichki qurilishi jihatidan denotativ (atash, nomlash) va konnotativ ma'no bildirib, shu asosda aloqa vazifasini bajara oladigan vosita ekanligi uning ichki dualizmi, bir tomondan, obyektiv borliqni aks ettiruvchi tafakkurning shakli, ikkinchi tomondan, har bir elementning mohiyati shu elementning boshqa elementlar bilan bo'lgan ichki munosabatlaridan kelib chiqadigan mustaqil tizimdir.

Ma'lumki, badiiy adabiyotning asosiy quroli so'z sanaladi. So'z serqirra va murakkab lisoniy hodisa, fonetik-fonologik, leksik-semantik, ijtimoiy va ruhiy xususiyatlar majmuidir.

Yozuvchilar olg'a surgan g'oyasini o'quvchilar ommasiga to'la yetib borishida ham asar tili muhim rol o'ynaydi. Haqiqatan, til o'sha g'oyani talqin etishda ishoralarning siqiq, silliq bo'lishi, so'zlarning o'z o'rnida ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Har bir yozuvchi asar tilini shirali, badiiy va ta'sirchan bo'lishini ta'minlashda "so'z azobi"ni boshdan kechiradilar va kitobxonga manzur bo'ladigan so'zlar topishga harakat qiladilar, oxori to'kilmagan so'zlar qo'llash ustida bosh qotiradilar.

Umumxalq tili yozuvchi ixtiyoriga grammatik tomondan tayyor va qat'iylashtirilgan so'z hamda qurilish usullarini berishdan tashqari, yana turli xildagi birliklarni tanlab olish imkoniyatini ham beradi.

Abdulla Qodiriy o'z asarlarida leksik birliklarning turli-tuman xususiyatlaridan unumli foydalangan. Uning asarlarida ishlatilgan leksemalar ma'no ko'lamining kengligi, serqirraligi, o'zining xalqonaligi, bo'yoqdorligi va jonliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Qodiriy mohir so'z san'atkori sifatida asarlarida muayyan voqelikni tasvirlashda shunchaki bayondan qochadi, balki ko'p ma'noli so'zlar, so'zning konnotativ ma'nosi, ma'no ko'chishining turli usullari, xalqona ibora va birikmalarni unumli qo'llaydi.

Adib yuksak mahorat sohibi sifatida tilning barcha imkoniyatlaridan, jumladan, barcha lug'aviy birliklardan ustalik bilan foydalangan. Aynan bir jumlada bir sinonimik qatorga mansub birliklar qo'llangan:

Solih maxdum go'shtni Nigor oyimning yonig'a qo'yub o'zi zina bilan ayvonga chiqdi. (2-b.)

Solih maxdumning jo'mardlig'i ko'pincha yigirma paysa etdan narig'a oshmas. (2-b.)

Adib ayrim o'rinlarda nom ko'chishining original ko'rinishlarini qo'llaydi:

Shu yo'sun Salim bo'yoqchining mavridsiz laylaklari ichida bemahal g'urrak bo'lib Anvar ham yashay boshladi. (46-b.) Bu o'rinda metafora usulida laylaklar so'zi farzandlar, bolalar ma'nosida qo'llangan.

Adib iste'mol doirasi chegeralangan lug'aviy birliklar, xususan, evfemizm va disfemizmlarni ham o'rinli qo'llagan.

Evfemizm (< grek. *euphemismos* < *eu* – yaxshi + *phemi* – gapiraman) – narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo'pol beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol botmaydigan so'z, iborani qo'llash.¹

Ko'klamga chiqar-chiqmas Salim bo'yoqchining o'zi ham dunyo bilan vidolashdi. (46-b.) Bu gapda o'ldi so'zi o'rnida dunyo bilan vidolashmoq evfemizmi ishlatilgan.

Tanislaringiz kerak, o'rgulay, men mirzo Sultonaning ko'chlari bo'lam... (225-b.) Jumlada so'zlashuv nutqiga xos ko'chlari evfemizmi xotinlari ma'nosida qo'llangan.

Badiiy adabiyotda portret tasvirida adiblar mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu – adabiyotimizda portret ustasi sifatida tanilgan Abdulla Qodiriy ijodining ham o'ziga xosligini ko'rsatuvchi belgilardan. Yozuvchi asarlarida portretning go'zal namunalari mavjud bo'lib, biz uni evfemizmlar ko'zgusi orqali baholashga harakat qilamiz. Yuqorida aytganimizdek, adibning suyib yaratgan qahramonlari tashqi go'zallikka ega bo'libgina qolmay, tabiatan inson zotining barcha yaxshi xislatlarini o'zida jamuljam qilgan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Ra'no tasviriga kelganda ham muallif voqealar rivojidan chekinish qilib, quyidagi hikoyani bayon etadi:

¹ Хожиев А. Ўша лугат, 109-б.

Menim yosh vaqtimda, ayniqsa, go'zallik qidirg'an mag'rur chog'larim edi. Oilamizdami, boshqa yerdami, baharhol xotiramda yaxshi qolmag'an, Lola otlig' bir qizning chevarligi to'g'risida so'z bordi. Majlis ahli menga yaqin, ya'ni ular oldida husnda bahs ochish uyat bo'ladirg'an kishilar edi. Shuning uchun menga Lolaning chevarligidan ko'ra muhimroq bo'lg'an "husn"i masalasida izohxot so'rashning imkoni bo'lmadi. Lekin Lola ismining ostida bir malakni ko'rgan – "Lolaning ismiga o'xshash husni ham bor", deb o'ylag'an edim. Shu kundan boshlab Lolani ko'rish hajriga tushdim. Bo'yi yetkan qizlarni ko'ra olish bu kunlarda ham amri mahol bo'lg'anidek, munda o'n yillar ilgari yana mushkilroq edi. Necha vaqt "hijron o'tida yonib", ko'cha poylab nihoyat, Lolani suv olish uchun ko'za ushlab ko'chaga chiqqan holatda uchratdim. Burnidagi buloqisidan boshqa (agar buloqi husnga qo'shilsa) "Lola"likka arziydigan hech gap yo'q edi. (21-b.)

Yuqoridagi *Lolalikka arzimastlik* evfemik birligiga e'tibor qaratildigan bo'lsa, ismning jism bilan nomutanosibliyi anglashiladi va keyingi jummalarda shu fikrni quyidagi evfemik jummalarda bayon etadi:

Yaqindag'i bir boladan suv olg'uchining kim ekanini so'rag'an edim:

– Lola opam, – dedi.

Bolaning talaffuzi menga "Mola opam" bo'lib eshitildi. Bir necha kun bu qizning otini "Lola" deb qo'yg'anlari uchun achchig'lanib yurdim".(21-b.)

So'z va iboralarni kesatq yoki piching bilan o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatish **ironiya** hisoblanadi.¹ Romanda kinoyaviy evfemalar ham mahorat bilan qo'llangan.

Salim bo'yoqchi oilasida kutilmaganda oltinchi farzand – Anvarning tug'ilishi bilan voqealar yoritilgan "Baxmalbofda faqir bir oila" nomli bobda bir necha Anvarga nisbatan "hurmatsez oltinchi "mehmon", "qadirlik mehmon", "qadrlik" kabi kinoyaviy evfemalar kuzatiladi.

Yoki:

¹ Юлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоетик тахлили асослари – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 98.

– *Sen ahmoqsan, Gulshan opa! – der edi Qumri.* – Eringni yolg`iz tashlab biz **“bo`ydoqlar”** ichida nima ma`no topasan? (141-b.)

Bu jumlada *“bo`ydoqlar”* so`zi *“turmushga chiqmagan qizlar”* ma`nosida qo`llangan.

Disfemizm – efemizmining aksi bo`lib, ayrim tushunchalarni qo`pol va dag`al usulda ifodalash. Disfemizm **kakofemiz**m deb ham ataladi.<sup>1</sup> Masalan, *Uyda xat yozib o`lturgan Ra`no onasining kim bilandir havli yuzida ko`rishib, so`zlashqanini eshitdi va birozdan so`ng yumaloqqina, to`la-to`kis bir bo`g`oz xotinni ayvon muyushida ko`rib, yozuvini to`xtatishqa majbur bo`ldi.* (225-b.)

Jumladagi *bo`g`oz* disfemizmi *og`ir oyoq* ma`nosida qo`llangan.

– **Zantalag`ing** kimga qayisha qopti? (68-b.)

Yozuvchi nutqida Xudoyorxon tasvirida bir qator disfemizmlar kuzatiladi:

Xon – hazmi har bir iflosliqni ham ko`taradigan katta bir hayvon. (220-b.)

Shundan keyin xon – katta hayvonni qitiqlab ishka soladilar... (220-b.) kabi.

Boshqa o`rinda Sultonaning xotini nutqida yana xonga nisbatan haqoratli so`z qo`llanadi:

– *Chamasi ular oshiq-ma`shuq, baloxo`r xon loaqal shunga cho`vagini tiqmasa nima qilar edi.* (227-b.)

Abdurahmon domla tilga olingan sahifalarni o`qir ekansiz, sahifadan-sahifaga uning “chayon”ligini uqa borasiz. Boshqa timsollar nutqida unga nisbatan qo`llangan disfemizmlarda uning salbiy qirralari borgan sari ochilib boradi:

– *Harholda bu kaltakesak bizga do`st emas.* (179-b.)

Ammo mulla Abdurahmon ahmoq emas, ko`b ish ko`rgan tullak! (180-b.)

Bu kaltakesak yutkan chayonning yuragida, Xudoy bilsin, sizga qarshi katta adovat bor. (181-b.)

Adib asarlarining xalqimiz o`rtasida sevib o`qib kelinishining asosiy sababi, bizningcha, uning voqea-hodisalarni jonli xalq tilida tasvirlab berishi va personajlarning o`zlariga xos so`zlar topib, tipiklashtira olishidadir.²

¹ Юлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили асослари – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 98.

² Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 225.

“Abdulla Qodiriy tilni yaxshi bilgan, uni butun ma’no tovlanishlari bilan chuqur his qilgan san’atkorlardandir. Ko’rinishdan judda oddiy, kunda qo’llanadigan so’zlar kontekstda nihoyatda o’rinli va vaqtida ishlatilishi tufayli shunday ma’no kasb etadiki, bundan boshqa biror so’z uning o’rnini o’tay olmasligiga ishonasiz.

... Soddalik, badiiy obrazlilik Abdulla Qodiriy romanlari tilining o’ziga xosligini ta’minladi. O’zbek tilining boyligini, unda katta polotnolar yaratish mumkin ekanligini o’zbek yozuvchilari orasida birinchilardan bo’lib ... isbot etdi.”¹

Yozuvchi ayrim hollarda o’sha davr tilini yorqin ifodalash uchun tarixiy, hozirda eski kitobiy hisoblanadigan so’zlarni ham ko’p ishlatgan. Masalan, quyida hozirgi *astoydil* so’zinimg eski kitobiy, *chigal*, *mayday-chuyda* so’zlarining tarixiy variantlari kuzatiladi:

*Safar akaning **aztahidil** achchig’lang’anini sezgan imom orag’a tushti...*
(70-b.)

*Harholda masala **chigil**...* (56-b.)

*Chunki ziyorat qilg’uchilarning aksarisi **mertuq-sertuq** qavm-u qarindoshlar, uzoq-yaqin ko’z tanish madrasa talabalari va bir necha mahalla imomlari bo’lib, ul kutkan asosiy moyalar, ya’ni mudarris, peshvolar, mufti-ulamolar va bek-bekzodlar, boobro’ ashrof va boyonlar ziyoratchilar orasida aqalli ko’z og’rig’i uchun ham ko’rinmadilar.* (78-b.)

Mahsuldor so’z yasalishi andozasi asosida muallif tomonidan yaratilgan va faqat ma’lum nutqiy matnda tasviriy-ta’sirchanlikni ta’minlash maqsadida qo’llangan individual-uslubiy yangi lug’aviy birlik **okkazionalizm** deyiladi. Ayrim manbalarda izohlanishicha, okkazionalizmlar ma’lum matndagina qo’llangan so’z, individual-uslubiy neologizm.²

Abdulla Qodiriy bir qator okkazionalizmlar yasagan:

¹ Султонова М. Ёзувчи услубига доир. – Тошкент, 1973. – Б. 93.

² Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент : Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 74.

*So`ngra Anvarning “dunyoda men yatim o`rtog`ingg`a tanho **sirdon va dildor** (ko`ngil ko`targuchi) eding”. (54-b.)*

Bu o`rinda u *-don* qo`shimchasi vositasida dildorga monand tarzda *sirdosh* ma`nosidagi *sirdon* so`zini yasaydi.

Quyidagi jumlada hozirgi o`zbek badiiy nutqida asar nomi sifatida mashhur *shaytanat* so`zini yasagan:

*Anvar o`zini tabrik qilg`uchi ulamo va ashroflar yuzidan ochiq ravishda riyo, **shaytanat** va tama o`qur, kambag`allardan sodda samimiyat ko`rar edi. (92-b.)*

Yana asarda *-ban* qo`shimchasi vositasida yasalgan *chashmband*, ikki asosning qo`shiluvidan yasalgan *jonso`z* so`zlari qo`llangan:

*Xotin to`xtadi va yigitqa qarab betidagi **chashmbandini** qiya ochti. (121-b.)*

Adib ta`sirli va obrazli so`zlarni qo`llaydi:

*Keyingi baytlar og`ir bir fojiani tasvir qildilar: oylar, yillar yig`lag`an, hasratidan hushsiz yiqilg`an baxtsiz bir qizning **jonso`z** faryodini gavdalantirib ko`rsatdilar. (139-b.)*

Gapda qo`llangan *jonso`z* so`zi tarixiy-etimologik manbasiga ko`ra forsha, asli lug`aviy ma`nosi *jonni kuydiruvchi, azobkash* bo`lib, o`zbek tilida *o`ta ta`sirchan, ta`sirli* ma`nolarini anglatadi.¹ Bizningcha, yozuvchi lug`aviy birlikni aynan asl *jonni kuydiruvchi, azobkash* ma`nolarida qo`llagan.

Boshqa o`rinda hozirda hayvon va insonlarga nisbatan qo`llanadigan ham sifat, ham ravish bo`lgan *yuvosh* lug`aviy birligini takror ko`rinishida soqchilarga nisbatan *beozor* ma`nosida ishlatgan:

*Qo`rg`on ostidag`i soqchilar xoting`a **yuvosh-yuvosh** qarab olish bilan kifoyalanar va uni tanig`andan parvosizcha o`z yonlaridan kechirar edilar. (121-b.)*

Abdulla Qodiriy qahromonlarning ruhiy holatiga, xarakteriga monand, ya`ni tasvirni jonli, xalqona va obrazli ifodalovchi so`zlarni topib qo`llaydi. Masalan, quyidagi jumlada bolaning hali tili chiqib ulgurmaganini, nimalarnidir

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-ж. – Б. 109.

soʻzlayotganligini “gʻoʻldiramoq” soʻzining sinonimi, sof turkiy *guvranmoq* feʻli bilan, oʻzgardi tushunchasini esa *tovlandi* feʻli bilan obrazli ifodalagan:

Masʼud Anvarning qoʻligʻa oʻtkach, sapchib guvrandi va qiyqirib tovlandi.
(31-b.)

Boshqa oʻrinda Raʼno nutqida “*aybsituvchi gap-soʻz aytmoq*” maʼnosidagi *koyimoq* soʻzining sinonimi *yanmoq* feʻlini, *koʻp*, *guruh* maʼnosida *durkum*, “*katta, maxsus bezatilgan va mehmonlar kutib olinadigan xonalar*” maʼnosida *tanobiy*, *yopishtirib* soʻzi oʻrnida *yamashtirib*, “*rashk qilmoq*” maʼnosida *kunchilamoq*, *jazo* oʻrnida *tatigʻ*, *kirishmoq* maʼnosida *qatishmoq* soʻzlarini ishlatgan:

Raʼno Masʼudni yandi: “*Sen qarab tur, biji bola*” dedi. (31-b.)

...ikkinchi, uchunchi durkum fotihaxonlar kelgandan soʻng, maxdum Anvar oldigʻa kishi yuborib, uni chaqirtirib kelishka majbur boʻldi. (92-b.)

Havlining toʻrt tomoni naqshinkor, oynaband, gul chakilgan darichalik, hammasi bichiqda tanobiy (zol) uylar, har bir uyga maxsus dahlizlar va bir-biriga yamashdirib solingʻan xonalarni shu dahlizlar bir-biridan ajratib turar edilar.
(122-123-b.)

Sayidni kunchilaydi, deb boshingizgʻa keltira koʻrmangki, hozir ham men onhazratning bir yuzinchi xotini boʻlaman. (129-b.)

– *Qiyomatdami? Bularning tatigʻini bermasam... he, koʻzlaring qursin!*
(155-b.)

Birinchi xonadan Xudoyor huzuriga kiradigan eshikning ikki yonida oybolta koʻtargan ikki jallod durat kabi qotqanlar, ular qatorida xon ulugʻlari – ayon va saroy beklari chizilishib oʻlturgʻanlar edi. (83-b.)

Axir, biravni uka, biravni aka deb siz ham tuzukroq ishka qatishing-da, taqsir. (97-b.) kabi.

Adib oʻxshatishli birliklardan ham unumli foydalangan.

Oʻxshatish deb “ikki narsa yoki voqea-hodisa oʻrtasidagi oʻxshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini toʻlaroq, boʻrttiribroq ifodalash”ga aytiladi. Oʻxshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri

sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi.

Badiiy matndagi o'xshatishli qurilmalar tekshirilganda ularni an'anaviy va xususiy-muallif o'xshatishlari sifatida tasniflash kerak bo'ladi. An'anaviy o'xshatishlar og'zaki nutqda ko'p ishlatiladigan, shu sababdan ta'sirchanligini yo'qotgan o'xshatishlardir.

Xususiy-muallif o'xshatishlari yozuvchining o'z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o'xshatishlaridir. Bunday o'xshatishlardan orginallik, obrazlilik va ekspresivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi.¹ Romanda ana shunday orginal o'xshatishlar va o'xshatishli birikmalarni ham ko'plab kuzatiladi:

*To'qquz-o'n kunlik oy shahrning qoq ustida **cheti qorayg'an sariq barkashdek** yaltirab turar edi. (32-b.)*

*Ya'ni "Aqoid" ning sharhiga yaxshi tushunish uchun **besh barmog'ini og'zig'a tiqqandek** yeng shimardi. (77-b.)*

*Charog'poyadagi sham **bedillar yuragidek titrab**, mehmonxonani arang-arang yoritar, shamning titrog'i bilan ko'zini bir nuqtag'a tikkan Anvarning hozirgi xayolchan yuzi ham qaltirag'andek ko'rinar edi. (77-b.) kabi.*

¹ Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. –B. 79-80.

2.3. Asarda frazeologizmlarning qo'llanishi va uslubiy jilolari

Abdulla Qodiriy dastlab hayotni chuqurroq o'rganish, xalqning boy jonli tilidan unumli foydalanish, ifodada yorqinlikka, voqealarning eng nozik unsurlarigacha ixcham jummalarda berishga intildi. Yozuvchi g'oyat boy xalq tilining mislsiz xazinasidan, shu bilan birga, o'zbek va rus klassik yozuvchilarining til bilishdagi mahoratlaridan ijodiy o'rgandi ¹.

Yozuvchi o'z qahramonlarini tasvirlaganda, ularga xos voqea-hodisalarni qalamga olganda oddiy so'zlashuv nutqiga oid so'z, so'z shakllari, iboralar, maqol va matallardan ham mahorat bilan foydalandi.

Ikki va undan ortiq so'zning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma'nosi odatda bir so'zga, ba'zan so'z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiritiluvchi, ko'chma ma'noli barqaror (turg'un) birikma **ibora** yoki **frazeologizm** deyiladi. Masalan, 1. *Anvarning "chillasi charog' ko'rmagan"* bo'lsa hech boki yo'qdir, biroq yigirma kunlab beshikda ismsiz yotishi qiziqdir... (45-b.) 2. *Ikkinchi tarafdin, safarning "ul bo'lsa, madrasa ko'rmasdan mirzolarining mirzosi bo'lmoqchi..." jumlasini yana dard ustiga chipqon.* (73-b.)

Bu gaplarda *chillasi charog' ko'rmagan, dard ustiga chipqon* frazeologizmlari qo'llangan.

Ra'no tomonidan Solih maxdum haqida bitilgan hazil she'rda ham bir necha xalqona iboralar timsol xarakterini yorqin ifodalashga xizmat qilgan:

Yog'lar to'kilsa yerga yotib yalar taqsirim,

Bo'lsa bozorda pastlik sotib olar taqsirim.

Menim uchun bir zirak, Ra'nobonug'a jevak,

Desa oyim – "Ne kerak?!" yumma talar taqsirim.

"Quloq teshish fazl emas, pulni toppish hazl emas,

Jevak taqish farz emas!" g'avg'o solar taqsirim. (24-b.)

¹ Алиев А. Ижод ва изланишлар. – Тошкент, 1976. – Б. 122.

Frazeologizmlar adabiy tilning badiiy va soʻzlashuv uslubida keng, koʻproq qoʻllanadi va nutqni taʼsirchan, obrazli ifodalashga xizmat qiladi. N. M. Shanskiy, A. Bistrova, T. Aliqulovlar qayd etishicha, “agar tilning frazeologik iboralari bilan “buloq suvi”ga qiyoslash mumkin boʻlsa, iboralar qatnashmagan tilni distillyatsiya qilingan suvga tenglashtirish mumkin. Nutq jarayonida ibora qoʻllanmasa, u “oʻta qoidali”, hatto “sunʼiy” boʻlib koʻrinadi”¹. Quyidagi yuksak mahorat bilan qoʻllangan frazeologizmlar bu fikrlarni tasdiqlaydi.

Mubolagʻa qilib, boʻrtirib yubormoq maʼnosidagi **“ingani tuyadek, xasni xaridek koʻrmoq”** iborasini qoʻllagan:

– Sizga bir soʻzni aytib ham boʻlmaydi, – deb kuldi Sultonali, – **ingani tuyadek, xasni xaridek koʻrasiz.** (213-b.)

Yozuvchi til lugʻat tarkibidagi iboralardan foydalnibgina qolmay, yangi-yangi iboralar ham yaratadi.

Adib “*miyasi palagʻda boʻlib qolibdi*”, “*miyasi achidi*” kabi frazeologizmlari modelida **“miyasi suyulmoq”** iborasini, “*doimo salbiy hatti-harakatlar istagida, ilinjida yurmoq*” maʼnosidagi **shaytonni apichlab yurmoq** orginal iborasini yaratadi. Bu ibora orqali *miyasi charchadi* demoqchi: *Maxdum ulamo, amaldor va gʻayrilardan shuning kabi siporishlarni toʻrt-besh soatdan beri qabul qila-qila juda miyasi suyulgʻan edi.* (92-b.)

Oʻzlaringizni aytishlaringizga qaragʻanda, musulmon kishi uchun kina saqlash bir roʻymolni yuvib qurutqancha ekan, – dedi Safar boʻzchi, – bizlar boʻlsa toʻrt kundan beri shaytonni apichlab yuruymiz... (96-b.)

“*Ogʻzidan bodi kirib shodi chiqadi*”, “*ogʻzini jilovi qochmoq*”, “*ogʻzining bogʻichini qochirmoq*”, yaʼni *oʻzini boʻlar-boʻlmas gaplar aytishdan toʻxtata olmaslik* kabi salbiy maʼnoli yangi ibora ham yasagan:

– *Xoʻsh, kinani tashlagʻan boʻlsangiz, – dedi yoʻlakay imom, – nega boya ularning oldida ogʻzingizgʻa kelganini oʻtladingiz?* (97-b.)

¹ Шанский Н.М., Бистирова Е.А., Аликулов Т. Рус тилидаги 700 фразеологик ибора луғати. – Москва, 1981. – Б.5.

Adib qahramonining salbiy holatini ifodalar ekan, “*hech vaqosini goldirmaslik*” ma’nosida “*enasining o’sma-surmasigacha qoldirmaydir*” iborasini yaratadi: *Xon kanizni haramdan haydaganidek, shoirni ham huzuriga chorlab, o’bdan og’iz-bo’g’zig’a, hatto enasining o’sma-surmasigacha qoldirmaydir...* (102-b.)

Yozuvchi shu o’rinda shoir haqidagi voqea-hodisalar tasvirini davom etirar ekan, *boshqa narsalarga umid qilmaslik* ma’nosidagi “*bo’yini boshqqa uzatmay*” iborasini qo’llagan:

– *Albatta. Shoirning esi bo’lsa bo’yini boshqqa uzatmay, saroydan haydalmaganiga ham shukur qilsa bo’lar edi.* (102-b.)

Abdulla Qodiriy boshqa o’rinda “*odamlar bilan gavjum*” ma’nosida “*xalq bilan qaynashmoq*” iborasini yaratadi: *Domla Niyoz Muhammad aytkandek, gulshanning uch tarafi xiyobon, rastalar va bunda ertadan-kechkacha xalq qaynashib turar edi.* (119-b.)

Odatda “*qavarmoq*” harakati qo’lga, oyoqqa xos: *qo’lim qavardi, oyog’im qavardi* kabi. Qo’l qavarganda, kaftda suvli pufakchalar paydo bo’ladi, so’ngra u qadoqqa aylanadi, buni har bir kishi biladi, shuning uchun “*qavarmoq*” so’zi eshitilishi bilan kishi ko’zi o’ngida darhol qo’lning xuddi shu aniq va og’riqli ko’rinishi keladi.¹ “*Qavarmoq*” ko’zga nisbat berilganda esa bu holat endi obrazlilik, Ra’noning achinarli ruhiy holati ko’z oldingizga keladi:

Ra’noning ko’zi qavarib ketdi. (272-b.)

Asarda juda ko’plab bunday iboralar uchraydi.

O’zbek tilidagi “*gap qaytarmoq*”, “*so’z qaytarmoq*”, “*gap(i)ga gap qaytarmoq*”, “*so’z(i)ga so’z qaytarmoq*” frazeologizmlariga sinonim tarzda “*so’z ulashdirish*” iborasini o’rinli qo’llagan: *Cho’ringiz so’z ulashdirishni yomon ko’radir, oyi xonim.* (128-b.)

Asarda qo’llangan *vafosizlik ko’rmoq*, *vofosizlik bo’yini olmoq* iborasi orqali *vaf*o ko’rmaslik nazarda tutulgan: *Bechora Ra’no hamisha yaxshilik, aqllilik*

¹ Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1989. – Б. 29-30.

ko`rib kelgan bir kishisidan ham oxirda dag`alliq ko`rar, vafosizliq bo`yini olar edi. (223-b.)

Yozuvchi “*yuragi suv bo`lib oqdi*” iborasi orqali *butun borlig`i bilan tushundi, tingladi, angladi* demoqchi:

Anvarning qarashidag`i ma`noga tushungan Sultonaning yuragi suv bo`lib oqdi va hushsiz, hissiz, Anvar ko`zdan yo`qolg`uncha qarab qoldi... (279-b.)

Yozuvchi bir nimaga ega bo`lish ilinjida yurmoq ma`nosidagi toq kelib juft ketmoq iborasini yaratgan: *Ey... man sandek tammoni to`yboshi qilib, telba bo`ldimmi? Uyidan toq kelib, juft ketmakchida, bu tammo.*()

Asarning ko`p o`rinlarida aynan bir jumlada, bir voqea hodisa tasvirida bir necha iboralarni qo`llanishi asosida yuksak badiiylik va obrazlilikni ta`minlash kuzatiladi:

Maxdum, mehmonxonadan yurib kelgan oyoq tovshini eshtib, yomonlag`an otdek tipirchiladi. Eshon bo`lsa, hamon bulbul kabi sayrab borar edi. (151-b.)

Bu o`rinda “*bezovta bo`lmoq*” ma`nosidagi “*yomonlag`an otdek tipirchiladi*”, “*to`xtamay gapirish*” ma`nosidagi “*bulbul kabi sayrar borar edi*” iborasi qo`llangan.

Abdulla Qodiriy frazeologizmlarning bir turi perefrazalardan ham unumli foydalangan va o`zi ham betakror tasviriy ifodalar ham yaratgan.

Parafraza (grek. *paraprasis* – tavsifiy ifoda, tasvir) – narsa, voqea-hodisani o`z nomi bilan emas, balki ularning xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul orqali ifodalash va shunday usul jarayonida yuzaga kelgan birlik.<sup>1</sup> Ilmiy adabiyotlarda parafrazaning muqobili sifatida **tasviriy ifoda** termini ham qo`llanadi.

Parafrazalar narsa, voqea-hodisalarning o`z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, bo`rttirib, izohlab va to`ldirib ko`rsatadi, nomni ta`sirchan, obrazli ifodalashga xizmat qiladi, asosan, badiiy va publisistik uslubda keng qo`llanadi.

¹ Қаранг. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1966. – С. 312; Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 67.

Parafrazalar ham frazeologizmlarning bir turi. Narsa, voqea-hodisaning o'z nomi bilan atamay, boshqa narsa va hodisaga o'xshatish orqali tasviriyl ifodalovchi birlik parafraza hisoblanadi.

Parafrazalar narsa va hodisalarning ikkinchi nomi.

O'zbek tilida *chaqaloq* so'zi o'rnida so'zlashuv uslubida *kichkina, kichkin-toy, jajitoy* lug'aviy birliklari qo'llanadi. Adib bunday lug'aviy birliklar sirasini *ko'krak bolasi* perefrazasi bilan boyitadi:

Nigor oyim hozirg'ina qizlarni ozod qo'yub, ko'krak bolasini bag'rig'a olg'an edi.(6-b.)

Adib badiiy timsollar milliy ruhiyatiga, xarakteriga mos perefrazalar qo'llash asosida asarda milliy koloritni, timsollarning o'ziga xos xarakter sajiyasini ifodalashga erishgan:

Safar bo'zchi nutqida *siz* o'rnida *janobingiz* qo'llangan:

– *Xudoning berishi, taqsir, – dedi Safar, o'ylab-netib turmay, – janobingiz Buxoroyi sharifda necha yil o'qib nihoyati mahallaga imom bo'ldingiz...* (71-b.)

Masjid so'zi o'rinida *ka'batullo* tasviriyl ifodasi ishlatilgan:

– *Ikkita bo'zni ikki qo'llab oborsang, – dedi Samad bo'qoq, – qaysi ahmoq olmay qaytarar ekan? Yolg'onni sal kishi ishonadig'anqilib gapirish kerak, Safar!*

– *Azbaroyi Xudo, olmadi! – dedi Safar va asabiylanib o'rnidan turib ketdi, - shu ka'batulloning ichida o'tirib yolg'on gapirgan odam musurmon emas, kishining qasamig'a ishonmag'an ham yeti mazhabda mo'min emas!* (70-bet)

2.4. Romanda qoʻllangan paremiyalarning semantik va uslubiy tahlili

Rus yozuvchisi Nikolay Mixaylovich Karamzinning “Soʻzlar – asrga, fikrlar esa asrlarga tatiydi” degan hikmatli soʻzlari goʻyo maqollar haqida aytilganday. Oʻzbek xalqida “*Soʻz sarasi – maqol*”, “*Soʻz koʻrki – maqol*” kabi purmaʼno maqollar qoʻllanadi. Albatta, bu fikrlarda asos va haqiqat bor. Ota-bobolarimizning hayotiy tajribalari mahsuli boʻlgan maqol va matallari – nutq koʻrki, bezagi.

Gʻ.Salomov maqollar haqida fikr yuritarkan, “Xalq maqoli – xalqning mulkidir. Maqol qaygʻusi – xalq qaygʻusi, maqol gʻazabi – xalq gʻazabi, maqol kulgusi – xalq kulgusi va maqol kinoyasi – xalq kinoyasi demakdir”, – deb yozadi.¹

Abdulla Qodiriyning boshqa asarlari qatori “Mehrobdan chayon” romani-ning badiiyati, ifoda uslubida maqol va matallar alohida oʻrin tutadi.

Badiiy asarda qoʻllangan maqol va matallar, avvalo, fikrning obrazliligi, badiiy, taʼsirchan, xalqona tarzda siyiq, loʻnda ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, Solih maxdumning Nigorxonimga uylanishi, singlisi Naimaxonimning aynan kelin olingan uyga uzatilishi mojarolari bayonini maqol vositasida quyidagicha xalqona yakunlaydi: “*Hay etti, huy etti, ikki koski toʻy etti*” deganlaridek har ikki toʻy ham bir hafta ichida oʻtti...(13-b.)²

Romanning “*Maxdumning baʼzi xislatlari*” faslida Solih maxdumning xarakteri, xususan, xasisligi, kiyinishi badiiy tasvirini chizarkan, fikrini purmaʼno maqol bilan boshlaydi: *Oyni etak bilan yashirib boʻlmaydir. Maxdumning xasislikka oʻxshash holailari albatta bor edi.* (14-b.)

Bu oʻrinda qoʻllangan “*Oyni etak bilan yashirib boʻlmaydir*” maqoli keyingi oʻrinlarda Solih maxdumning kiyinish bobida xasisligi, ziqnaligi tasvirining muqoyasasi, loʻnda ifodasi, oʻz navbatida, xuddi shunday salbiy tavsiflashga iymanganini va istiholasini ifodalashi bilan mukammal uslubiy vazifa bajargan.

¹ Саломов Ф. Мақол ва идемалар таржимаси. – Тошкент, 1961. – Б. 7.

² Абдулла Қодирий. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Шарқ, 2015. – 288 б. Барча парчалар куйидаги манбадан олингани боис кейинги ўринларда саҳифани бериш билан кифояланамиз.

Asarning “*Oila va kishilar bilan muomala*” faslida esa adib maktabda bolalardan unga yo bunga “soliq solinishi” holatlari haddan ziyod ortiqchaligini xalqona matal bilan o`ziga xos obrazli tasvirlangan: *Panjshanbalik bo`lsa maktabning asos haqqi va bulardan boshqa “Qulyog`a quymoq – Ammaga bo`g`irsoq – Yosinga yupqa” degan gaplar ham bo`lar edi.* (17-b.)

Adib Solih maxdumnigina emas boshqa timsollar tasvirida ham xalq maqol va matallaridan yuksak mahorat bilan foydalangan. Yozuvchi “Nigorxonim” faslida uning avval faqir, boyigandan so`ng o`ta xasis, ziqna er bilan yashashdagi chidami, sabri tavsifini ham ironiya bilan sug`orilgan maqol bilan ifodalaydi: *“Xotin kishining boshi uy ichining og`ir toshi” emish...* (19-b.)

Solih maxdumga xos mol-dunyoga o`chlik, vijdonsizlik xislatlari, fasldan-faslga uning nutqida qo`llangan maqollar vositasida fosh etilib boradi: *Chunonchi, ushbuning misoli turkiyda ham bor: “Chumchuqdan qo`rqib, tariq ekmagan”, deb qo`rqoq kishilarni masxara qiladirlar. Shunga o`xshash sen ham chumchuqdan qo`rqib, tariq ekmaguvchilar xilidan bo`lsang... men yanglishib yurg`an ekanman-da, bolam!* (41-b.)

Yoki:

– *Habba, – dedi maxdum tamom ochilgan qiyofatda, go`daklik lozim emas, jabonat ko`b mazmum sufat, “Osilsang ham baland dorg`a osil” maqoli ko`b purhikmat so`z.* (44-b.)

Solih maxdum nutqiga xos “*Kufroni ne`mat, non tepkulik*” maqolida ham uning xarakter qirralari ochilib borgan.

Adib maxdumga xos xasislik unga tugal singib ketganligini va hatto, boyisada, bu davom etishiga ham matal vositasida tavsif beradi: *Lekin maxdum shunchalik daromad bilan ham eski tabiatini bir zarra o`zgartmas, hamon eski tos, eski hammom: har kun suyuq osh, Xudo yorlaqag`an kun ozodliqning palovi...* (59-b.)

Solih maxdumga xos salbiy kambag`alroq kishilarni ko`ra olmaslik, ichi qoralik uning o`ylarini ifodalangan quyidagi paremiyalarda yorqin ifodalangan: *Anvarning birarta kambag`al bilan “ezilishib” o`lturganini ko`rsa, ichidan*

achchig`lanib “kullushay`in yarji`u ilo aslihi...” past hamisha pastligini qiladir... Sut bilan kirgan – jon bilan chiqar, maqoli ko`b to`g`ri so`z, deb o`ylar va ensasi qotib, chetka ketar edi. (99-b)

“Yangi hunar” tarzida ironiya bilan nomlangan faslda adib Solih maxdumning Anvarga arzga kelganlardan nimadir undirishga harakati tasvirida uning nutqida yana bir maqolni qo`llash bilan unga xos “yangi hunari”ni yanada kinoyaliroq, salbiyroq, hayotiyroq ifodalashga erishadi:

Hatto ba`zi vaqt ikki og`iz so`z bilan qaytib chiqqan kishidan ham bir narsa undirishka tirishar, **mishiq oftobga tekin chiqmaydir**, sizdan aqcha so`rashqa iymandan-da, menga bir narsa tashlab ketsangiz, o`zim unga berib qo`yarman”. (149-150-b.)

Adib bir necha o`rinlarda maqollar vositasida Solih maxdumning o`zining salbiy xarakteridan quvonishini, ayrim o`rinlarda ularni yashirishga urinishini o`ziga xos tarzda yoritishga erishgan:

Kishilarni jo`natib xotirjam bo`lg`ach, jaraq-jaraq aqcha bilan ichkariga kirib ketar, ichkarida bu kungi “daromad”ni sanab, bir pulni besh puldan, tangani chaqadan ajratib, “he, **gap bilguncha ish bil**, bachcha taloq”, deb o`zicha kular edi. (150-b.)

Yoki:

*– Senga bir so`z tegmasin, qizim, – dedi kulib maxdum. – **Oshni sust yegan kishi, ishda ham sust bo`ladir**. (158-b.)*

Asardagi Abdurahmon domla, Xudoyorxon kabi salbiy qahramonlar nutqida qo`llangan xalq maqol va matallari ham muhim uslubiy vazifa bajarib, timsol-larning xarakterini, salbiy, ijobiy qirralarini yorqin chizishga xizmat qilgan hamda yozuvchi uslubining xalqchilligini, o`ziga xosligini ta`minlagan.

Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanining mavzusi to`g`risida so`z yuritir ekan, “Albatta, men so`ngg`i marg`ub qahramonlarni o`zbek tarixining hazmi ko`targan qadar o`z holicha olishqa tirishdim. Ularning xon va ulamoga qarshi isyoni tabi`iy – sha`riydir. Chunki undan ortig`i soxta bo`lishi ustiga kitobning qadrini tushurar edi. Shu ikki sinf kurashini tasvir qilish vositasida xon

harami, xotinlari, qirq qizlar, tarixiy va etno'g'rafiy lavhalar, o'zbek hayoti, qiziqchilig'i, tanqidchilig'i, o'zbek xotin-qizlari orasidag'i iste'dod, shoirlar, azkiyachilik va boshqa yana ko'b nuqtalarni qamrab olindi", – deb yozadi.¹

Adib asarda Abdurahmon domla boshliq Shahodat mufti, Kalonshoh kabi qora guruhlar, jirkanch niyatli amaldorlar, din ahllari o'zlarining yovuz niyatlariga erishish uchun ig'vo, qabihlik bilan machit-madrasa mehrobidan sof ko'ngilli kishilarga zahar sochishini ularning nutqida ham yoritgan.

Adib uslubiga xos yana bir xususiyat – badiiy timsollar xarakterini ularning yoki ular atrofidagi boshqa timsollarning nutq orqali ochadi. Bu usul "Mehrobdan chayon" romanida ham yorqin kuzatiladi. Asardagi Solih maxdum, Abdurahmon domla, Xudoyorxon kabi qahramonlar nutqi fikrimizning yorqin dalilidir. Ularning nutqida qo'llangan xalq maqol va matallari ham muhim uslubiy vazifa bajarib, timsollarning xarakterini, o'ziga xos salbiy ijobiy qirralarini ifodalanishiga xizmat qilgan.

Solih maxdumga xos mol-dunyoga o'chlik, vijdonsizlik xislatlari sahifadan-sahifaga, fasldan-faslga o'tgan saringiz uning nutqida fosh etilib boradi. Bu uning nutqida Anvarga, agarda u bosh munshiylikni qabul qilish borasidagi nasihati va maslahatida ham kuzatiladi:

– *Habba, – dedi maxdum tamom ochilgan qiyofatda, go'daklik lozim emas, jabonat ko'b mazmum sufat, "Osilsang ham baland dorg'a osil" maqoli ko'b purhikmat so'z. (44-b.)*²

Solih maxdumga xos salbiy kambag'alroq kishilarni ko'ra olmaslik, ichi qoralik uning o'ylarini ifodalangan quyidagi paremiyalarda yorqin ifodalangan: *Anvarning birarta kambag'al bilan "ezilishib" o'lturganini ko'rsa, ichidan achchig'lanib "kullushay'in yarji'u ilo aslihi..." past hamisha pastligini qiladir... Sut bilan kirgan – jon bilan chiqar, maqoli ko'b to'g'ri so'z, deb o'ylar va ensasi qotib, chetka ketar edi. (99-b)*

¹ Қодирий Абдулла. Рўмоннинг мавзуси тўғрисида // Меҳробдан чаён. – Тошкент: Sharq, 2015. – Б.5.

² Барча парчалар куйидаги манбадан олинган: Қодирий Абдулла. Меҳробдан чаён: роман. – Тошкент: Sharq, 2015. – 288 б.

Boshqa bir o`ringa e`tibor qaratamiz: Safar bo`zchi Abdurahmon domlaning mirzolikdan bo`shab qolganini eshitgach:

– *Shunchalik holing bor ekan, **dumingga qumg`on bog`lashing** nima hojat edi, deb kulaman. **Egri to`nkaga – egri to`qmoq**; mirzam xo`b yaxshi qilg`anlar-da.* (194-b.)

Ko`rinadiki, sodda, haqiqatgo`y Safar bo`zchi nutqida xalqona ibora va maqollar vositasida Abdurahmon domlaga to`g`ri baho beriladi.

Sultonali asarning boshqa bir o`rnida o`rdadagi muftilarga quyidagicha baho beradi:

– *Bor, bor: pul bersangiz **harom o`lgan eshakning halollig`iga fatvo beradigan** muftilar.* (195-b.)

Sultonali nutqida qo`llangan adib mahorati bilan yangicha sayqal topgan *harom o`lgan eshakning halollig`iga fatvo bermoq* iborasi o`rdadagi Shahodat mufti, Kalonshoh, Abdurahmon domlarning pulga o`chligini obrazli xalqona ifodalashga xizmat qilgan.

Asarda Abdurahmon domlaning mirzolikdan bo`shab, “suvga tushgan nondek” shilqilab qolganini eshitgan Safar bo`zchi o`z mulohazasini maqol vositasida quyidagicha ifodalaydi: “*Ko`rpangga qarab oyog` uzat, mullabachcha*”. Sultonali Abdurahmonning ishdan bo`shatilgandan keyingi ahvolini so`raganda u yana xalqona ibora, maqollar bilan javob beradi: “*dumingga qumg`on bog`lashing nima hoja edi, deb kulaman. Egri to`nkaga – egri to`qmoq*”, deb javob beradi.

Safar bo`zchi nutqida qo`llangan barqaror birikmalar uning Abdurahmon domlaga nisbatan ko`rilgan choradan xursandligini, xalqning, oddiy mehnat ahlining Abdurahmon kabi yovuzlarga bo`lgan nafratini obrazli, ta`sirchan, xalqona ifodalash vazifasini bajargan. Bu ham, albatta, Abdulla Qodiriyga xos yuksak mahorat mahsulidir.

“Mehrobdan chayon”da Anvarning saroy xizmatiga o`tishi, mirzaboshilik darajasigacha borishini ko`rsatish vositasida muallif kitobxonni Xudoyorxon o`rdasining ichki muhiti bilan tanishtiradi, xon xarami, xonim oyimlar, qirq qizlar,

qiziqlar bilan, saroy mirzolari hayoti bilan oshno qiladi – umuman feodal xonlik tuzumining ich-ichidan yemirilib kelayotganligiga eʼtibor beradi. Garchi xon va saroy hayotining tashqi koʻrinishda serhashamat, yozuvchi taʼbiri bilan aytganda, “yaltirasin” qabilida ish koʻrilgan boʻlsa ham, lekin ichki tomondan qaraganda, yaʼni mohiyatda uning chirib kelayotganligi, “yaltirasin” emas, balki “qaltirasin” boʻlayotgani diqqatni jalb etadi. Xudoyorning “yaltirasin shaʼnu shavkat” ishlarini yozuvchi xalqning “oʻchadigan chirogʻ yonib oʻchadi” degan ajoyib maqoli bilan obrazli ifodalaydi.¹

Asar xalq maqollari bilan bezak va sayqal topgan desak yanglishmaymiz. Sahifadan-sahifaga oʻtar ekansiz, voqealar bayoniga, badiiy timsollar xarakteriga mos maqollar qoʻllanganini kuzatasiz:

“Xotin kishining boshi uy ichining ogʻir toshi” emish... (19-b.)

– Yovda boʻlsa, tezagi tegar emish. Anvar oʻz bolangiz-da. (44-b.)

“Qush tilini qush biladir”, deganlaridek, Nodiraning samimiy arzi bandachiligi Mohlar oyim bilan Nosir kelinning yuraklarini ezdi va shu onda Mohlar oyim maktabxonadagi bolalar ichidan Anvarni chaqirtirib oldi. (48-b.)

– Ovoza haqiqat emasdir.

Shamol boʻlmasa, terakning boshi qimirlamas emish. Balki sizni mirzaboshi, tayin qilsalar yaxshimi, Raʼno? (64-b.)

Mol keti – jon keti, ishka ham qoʻlim bormaydi. (68-b.)

– Manavi osonliqni qarang, taqsir. Duo qilib qalam uchisiga boʻzni uzatdim, olmaydi. “Yopiray, ozsindi-yov, qurgʻur” deb qoʻrquvdim. “Arza oʻrunlasa, yana xizmat qilarmiz, mirzaboshi”. Yana yoʻq, “toza falakat bosti” – deb tursam, “arzaga haq olmayman; boʻzingni olib ketavur” – degan ekan. Baraka topqurni qarang, taqsir. A, shundaqa odam ham boʻladimi, Samad ogʻa. “Oltin olmasang, duo ol” – deb qoʻlimni ochtim. Ha endi buni qoʻyavuring. Ertasi kechqururn gula toʻgʻirlab oʻltursam, eshikni birav taqillatadi. “Ha, kelavuring”. Doʻkonxonaga boʻz qoʻltiqlagʻan bir kishi kirdi. (69-b.)

¹ Мирзаев И. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.50-51.

O`chadirg`an charog` yonib o`chadir, maqoli kabi Turkiston xonlarida siyrak ko`rilgan bu ma`muriyatparvarlik bizga qolsa, shu omillardan tug`ilg`an va bunda samimiy hech narsa yo`q edi. (118-b.)

Kishilarni jo`natib xotirjam bo`lg`ach, jaraq-jaraq aqcha bilan ichkariga kirib ketar, ichkarida bu kungi “daromad”ni sanab, bir pulni besh puldan, tangani chaqadan ajratib, “he, **gap bilguncha ish bil**, bachcha taloq”, deb o`zicha kular edi. (150-b.)

*Albatta, **daromadga yarasha buromad**, degan gap bor. (151-b.)*

Qora xayrnikini Alloh taoloning o`zi yetkirar ekan. (151-b.)

*– **Jon olov – jon er**, depti bir xotin... (176-b.)*

– Oson, biroq oson ishda lazzat yo`q, – deb kuldi Anvar. (180-b.)

*Juda og`ir; agar iflos bo`lsa uning tabiati, biz o`zgarta olmaymiz, **har kim tilagan oshini ichadir**. (182-b.)*

*Samad bo`qoq uning bu ichingidan qizardi: “Qulog`img`a yanglish kirgan ekan-da, ablah!” – deb gapni kulgullikka burdi. Safar bo`zchi ham “payrav” qildi. “**Bir qo`chqorning boshi ketkuncha, minglab qo`yning boshi kesilar emish**, deb ayt domlangg`a!” – dedi. (184-b.)*

Xotin kishining charxi bilan o`chog`ig`a tegma degan gap to`g`ri emish... Albatta, sen xotin kishi emassan-ku, biroq, “kullu shay`in yarjiu ila aslihi”. SABzini mayday to`g`raymi, yirik? Bir bor emish, bir yo`q emish, o`tkan zamonda bir qiz bore mish: ko`ziga tutun kirib yum-yum yig`lag`an emish. Sababini so`rasalar, o`tun ho`l emish, ammo qizning achchig`i xiyli mo`l emish... Teskari qarab kulma, hoy qiz! O`h latta keltir, qo`limni kestim! (200-b.)

*– **Sallalik eshaklarning diringlashi og`ilxonag`acha...** Ular mirzo Anvar o`ylamakchi bo`lg`an qizni xong`a to`g`rilab, shuning bilan go`yo o`ch olmoqchilar. Mirzo Anvar xotinsiz qolsin, demakchi-da, bu ahmoqlar. Holbuki, butun mamlakat qizlari mirzo Anvar uchun soch taraydi. Agar siz xohlasangiz qozikalon yoki domla shog`ovul va shular singari kalonpolarga kuyav bo`lolmaysizmi? **Kesak otib arslonni yengmakchi bo`lg`an galvarslarning** ishiga kulgim qistaydir... (214-b.)*

Binobarin, aqlg`a “qarg`a qarg`aning ko`zini cho`qur ekanmi?” degan savol keladir; janoblari shu borani qanday tushundilar ekan. (249-b.)

Yana shu holda matonatini yo`qotmay, “do`sting uchun qon yut” maqolidagi kabi, ularni qahramonliqda tabrik etdi. (259-b.)

Hayot hikmatli, umr hikmatli. Insonning xatti-harakati, husni-jamoli, fazl-u kamoli, so`z-u fikri – boringki, borlig`i butun bir hikmat. Hadislarda “She`rda hikmat bor”, deyiladi. Bu, albatta, haq gap. Shoirarning qalb qo`ri, tajribasi, mahorati, talanti va zahmatlari-la yaralgan ayrim she`rlar, she`riy parchalar, bayt-u misralar o`zining mazmun-mohiyati bilan hikmatga aylanadi.

Hikmat “o`ta donolik, aql-zakovat bilan oqilona aytilgan, “mixlab qo`yilgan”, o`zgartirib bo`lmaydigan chuqur ma`noli gap”, demakdir. Abdulla Qodiriy aytganidek, “Xalq hikmatlari – turmush onasining dard chekib tuqqan to`ng`ich o`g`li”. Albatta, bu majoziy talqin shoir-u adiblar yaratgan hikmatlarga ham taalluqlidir.

Hikmatli so`zlar adabiyotshunoslikda adabiy janr sifatida **aforizmlar** deb yuritiladi.<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy asarlari pandnoma xarakterdaligi bilan o`ziga xoslik kasb etadi. Shu boisdan uning asarlarida hayotiy tajribalar asosida tug`ilgan, yaralgan hikmatlar salmoqli o`rin tutadi.

Uning hikmatli so`zlari asarlarini mazmunan, badiiy jihatdan bezabgina qolmay, hayot tajribalari asosida yuzaga kelganligi, ya`ni hayotiyliigi va amaliy isbotiga egaligi bilan diqqatga molik.

Hikmatli so`zlar yaratish oson emas, bu o`ziga xos bilim, tajriba va mahoratni talab etadi. Hikmatlarda adibaning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, so`z boyligi, fikrlash tarzi va o`ziga xos uslubi o`z ifodasini topgan. T. Sodiqova yaratgan hikmatli so`zlar kuchli xalqona ruh bilan sug`orilgan, sodda, dabdaba va balanparvozlikdan yiroq, kishini faqat ezgulikka yetaklaydi va chorlaydi. Uning hikmatli so`zlar dono, falsafiy g`oyalarni ifodalashdan tashqari sententsiozlik – pand-nasihat ruhi kuchli.

¹ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 41.

– Bo`stoni ma`rifat va gulshani haqiqat, – dedi Sultonali... (27-b.)

Agar g`arazg`a hisoblansa, masalan: **“Birarta noahlning qo`l ostida ishlagandan, ahlning jag`ida tishlangan ma`qul”** so`ziga binoandir. (28-b.)

Kishi avvalo moxxov yoki pes bo`lmasin: bo`ldimi, betdan bo`lmasa – yelkadan, qo`ldan suv ochmasa jamiyat ham bir kasal bilan og`ridimi, uning har bir tabaqa yoki sinfiga, yana to`g`risi, fardiga shu kasal siroyat qilmay qolmaydir. (74-b.)

Hadisning hukmi om, Nigor, – dedi maxdum. – bundagi umur – umurid-dunyo, umurid dunyo iborat az harakati ahli mo`min. Inchinin, bu hadisning amaliyoti oxirat uchun ham hukmi joriydir... Masalan, shabu ro`z savm va salot mo`min kishini jisman notavon va nafaqai ahli ayoldan ojiz qiladir. Bas, bu holda ibodatning kasrati, ya`ni toatda ifrot ham xayrul-umurga qo`shilmas, zero, farz va sunnat banda uchun kofiy erdi. Ma`noyi kofiy chist, ay avsat... Binobarin, bu hadisi sharif ro`zg`orot borasida dastur tutilsa, yana ayni hikmat va savob. (156-b.)

Masalan, oshqa yigirma paysa go`sht solmoqchisan; ammo “avsat” qilmoq niyatida, mazkurdan o`z paysani ajratib qolding... Bas, hikmatni tomosha qil; ertasi kun oshing yana jazlik, ya`ni “avsat” bilan ikki kunlik ehtiyojdan qutilib, savobga ham daxldor bo`lding. Hikmati digar: dunyo vajhing yaxshi erdi. Taomni yaxshi mazalik yeb, nafsing yaxshi oshqa ho` qildi. Vaqti kelib, aftodahol bo`lding, kunning go`shtsiz taomg`a qoldi: ammo nafs ammorangni serjaz oshqa ho` qildirg`aning vajhidan go`shtsiz osh og`zingg`a yoqmaydir, bu – bir aziyat; soniyan: laziz oshqa ho` qilg`an nafsing taqozasi bilan, anvoi habosatlarga va mazmum kirdorlarga irtikob qilmog`ing xavfi ham border; bu nimadan keldi? Albatta “avsat”ka rioyasizlig`ingsan. (157-b.)

Asarda bir jumlada ham maqol, ham hikmat qo`llanishi ham kuzatiladi:

– **Yaxshiliq qil, daryog`a tashla; baliq bilmasa, Xoliq bilur**, deganlar. Fuzuliy: **“Dahr bir bozordir, har kim mato`in arz edar”** deb juda to`g`ri so`zlaydir. (118-b.)

Romanni mutolaa qilar ekansiz yana o`nlab hikmali so`zlarni o`qiysiz, adibning mahoratiga tahsinlar o`qiysiz:

– *Oshni sust yegan kishi, ishda ham sust bo`ladir.* (158-b.)

Zero, vasl ishq o`tini so`ndirg`uchi, hajr esa kamolatka erishguchidir...
(221-b.)

Va`da berish oson, lekin uhdasi mashaqqat; bundan so`ng shuni ham xotirda yaxshi tutingiz. (230-b.)

Shayxi Sa`diy aytkancha, dunyoda hayotidan qo`l yuvg`uchidek tili uzun kishi bo`lmas. (278-b.)

Bob yuzasidan xulosalar

1. Abdulla Qodiriy sarlavha yaratish bobida ham yuksak iqtidor va mahoratga ega bo'lgan. Lo'ndalik, obrazlilik va badiiylilik, mazmunan muxtasarlik, tagma'nolilik tamoyillariga asosida yaratilgan "Mehrobdan chayon" bibliotekasining shakl-u shamoyili, mazmun-mohiyati bilan betakrorligi, asar mavzusini ifodalashi va boshqa bir qator ekspressiv-stilistik xususiyatlarga egaligi ham buning dalilidir.

2. Romanning ichki 57 boblar sarlavhalari ham bir-biriga mavzuiy, mazmuniy va g'oyaviy jihatdan uzviy bog'liq bo'lib, go'yo zinapoya misoli qadam-qadam asosiy mazmunga yetaklovchi xususiyatga ega bo'lib, yuksak badiiyat bilan sayqallangan.

3. Soddalik, xalqchilik, badiiy obrazlilik Abdulla Qodiriy romanlari tilining o'ziga xosligini ta'minladi. Adib o'zbek tilining boyligini, unda katta polotnolar yaratish mumkin ekanligini o'zbek yozuvchilari orasida birinchilardan bo'lib isbotladi.

3-bob. ROMANINING SINTAKTIK-USLUBIY TAHLILI

3.1. Romanda qo`llangan kiritmalarning uslubiy xususiyatlari

Tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda **kiritmalar**, **kiritma so`z va iboralar** kabi terminlar kuzatiladi. Mazkur terminlar shaklan va ma`no jihatdan aynan bir terminga o`xshab ko`rinib-da, boshqacha talqin etiladi.¹

Uslubiyatga oid adabiyotlarda nutq jarayonida aytilayotgan fikrning tinglovchiga to`la yetib borishi uchun gap mazmuniga yoki uning ayrim bo`laklari ma`nosiga oid qo`shimcha izoh, ma`lumotlar berish, tushunarsiz va tushunilishi qiyin so`zlar (dialektizm, professionalizm, termin, jargon, arxaizm, istorizm kabilar) ma`nosini, ayrim leksik birliklarning talaffuzi yoki etimologiyasini izohlash, so`zlovchining subyektiv-emotsional munosabatini ifodalash, xabar manbaini ko`rsatish, qo`shimcha ma`lumotlar berish uchun xizmat qiluvchi ayrim bo`lak, birikma va gaplar **kiritmalar** deb ko`rsatiladi.²

Ilmiy manbalarda o`zbek tilida uchraydigan chet tillarga mansub so`zlar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- 1) o`zlashma so`zlar;
- 2) qo`llanma so`zlar.

Qo`llanma so`zlar genetik jihatdan boshqa tilniki bo`lgani holda, turli sabab va maqsadlar natijasida o`zga til matnlarida uchraydigan leksemalardir.³

Qo`llanma so`zlar kommunikativ va uslubiy vazifasiga ko`ra ikki turga bo`linadi:

- 1) ekzotik leksika yoki ekzotizmlar;
- 2) kiritma so`z va iboralar.

Qo`llanma so`zlarning har ikki tipi o`ziga xos kommunikativ va uslubiy ma`no xususiyatlariga ega bo`lib, matnda ma`lum vazifalarni bajaradi.

¹ Қаранг. Жамоа. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 93-94; Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 196-197.

² Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўша асар, 196-б.

³ Ўзбек тили лексикологияси, 88-бет.

Ilmiy adabiyotlarda **chet tili kiritmalari** terminining quyidagicha izohi kuzatiladi: “Qoʻllanmalarning bir turi kiritma soʻz va kiritma iboralar (иностранная вкрепления) dir. Kiritma soʻz va iboralar ham asosan tarjima adabiyotida uchraydi.”¹

Koʻrinadiki, **kiritmalar, kiritma soʻz va iboralar** deb atalayotgan birliklar bir xil nomlanayotgan boʻlsa-da, vazifasi, mohiyati, qoʻllanishi va uslubiy xususiyatiga koʻra farqlanuvchi ikki xil birliklardir.

Eʼtiborni adabiyotlardagi chet til kiritma soʻz va iboralarga doir boshqa izohlarga qaratsak, koʻrsatilishicha, ular oʻzbekcha matnlarda oʻzi mansub til imlosida va koʻproq oʻzbekcha imloda berilishi mumkin. Kiritma birikmalar aslida tarjima tilida muqobilining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Aslida kiritmalarni tarjima qilish mumkin, ammo tarjima matnida maʼlum shaxslarga xos individual xususiyatlarni saklab qolish nuqtai nazaridan ular tarjima qilinmaydi.² Demak, yuqoridagi talqinlarga asoslanadigan boʻlsak, chet til kiritma soʻz va iboralari tarjima asarlarida uchraydi. Biroq bizning kuzatishlarimizga koʻra, chet til kiritma soʻz va iboralari oʻz til matnlarida, xususan, oʻzbekcha nasriy asarlarda ham uchraydi. Fikrmizni asoslash uchun Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi xorijiy kiritmalarni koʻrib chiqamiz.

Asardagi kiritmalar arab va fors tillariga mansub boʻlib, ular oʻzbek krill yozuvida, oʻzi mansub tilda berilgan hamda satr ostida oʻzbek tilida izohlangan, oʻzbekcha muqobillari berilgan. Asarda kiritmalar, asosan, ulamolar, Solih maxdum, Shahodat mufti va boshqalar nutqida kuzatiladi.

Masalan, *“Ba nazdi mujtahidini kirom asli eʼtibor aqdi sharʼiydir. Otangiz marhum – nikohlanaman deb aytkan boʻlsalar ham nokohlandim, deb aytmaganlar. Bas, amiral moʻminin mazkurani xud nafslariga aqdi shaʼriy qilsalar joiz va durustdir. “Vallohi aʼlam bissavob”, deb fatvonomani “binni mufti marhum”, “binni muddaris marhum”, “binni Hoʻqandiy marhum” –*

¹ Ўзбек тили лексикологияси, 88-б.

² Ўзбек тили лексикологияси, 88-б.

muhri bahaybatlari bilan qalashdirib beradirlar va Madalixon to'y va tomoshalar bilan murod-maqsadig'a yetadir... (9-10-b.)¹

Ulamolar nutqida qo'llangan kiritmalar quyidagi ma'nolarni anglatadi: ***Ba nazdi mujtahidini kirom asli e'tibor aqdi shar'iydir*** – hurmatga loyiq din allomalarining nazaricha asosiy e'tibor shariat qonunlariga qaratilishi kerak.

Xud nafsida – o'z nafsida.

Aqdi sha'riy – sha'riy nikoh.

Yoki:

– *Ana xolos. Az karnaychi yak kuf.* (160-b.)

Bu o'rinda o'zbek tilida ham mavjud “*Karnaychidan bir puf*” iborasining forsha muqobili Solih maxdum nutqida Anvar bilan suhbatida, uni Abdurahmon domlani saroyga olishga ko'ndirish maqsadida qo'llangan.

Yoki: *Xotin kishining charxi bilan o'chog'ig'a tegma degan gap to'g'ri emish... Albatta, sen xotin kishi emassan-ku, biroq “kullu shay'in yarji'u ila aslihi”*. Sabzini mayday to'g'raymi, yirik? Bir bor emish, bir yo'q emish, o'tkan zamonda bir qiz bor emish: ko'ziga tutun kirib yum-yum yig'lag'an emish. Sababini so'rasalar, o'tun ho'l emish, ammo qizning achchig'i xiyli mo'l emish... *Teskari qarab kulma, hoy qiz! O'h latta keltir, qo'limni kestim!* (200-b.)

“*Kullu shay'in yarji'u ila aslihi*”, ya'ni “*Har bir narsa asliga qaytadi*” iborasi Anvar nutqida uning bilimdonligi ifodasi sifatida qo'llangan.

Kiritma so'z, ibora va gaplar o'z til matnlarida, xususan, badiiy matnlarda, asosan, tarixiy nasriy asarlarda kuzatiladi va din peshvolari, saroy amaldorlari, maktabdor, madrasa ilmini ko'rgan kishilar nutqida boshqalardan o'zlarini ajralib turish, o'zlarini bilimdonliklarini ko'rsatish, ko'z-ko'z qilish maqsadida qo'llanadi:

Nigor oyim kulimsib Anvarga qaradi:

– *Go'sht ko'b bo'lsa osh o'xshaladir.*

– ***Xayrul-umuri avsatuho, Nigor.*** (156-b.)

¹ Абдулла Қодирий. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Шарқ, 2015. Барча мисоллар шу асардан олингани боис кейинги ўринларда саҳифани келтириш билан кифояланамиз.

Solih maxdum nutqida uning o'ziga xos xarakterini, diniy bilimga ega ekanligini ifodalash uchun qo'llangan **“Xayrul-umuri avsatuho”** kiritmasi **“Har ishning o'rtasi yaxshidir”** ma'nosini anglatadi.

Kiritmalar ayrim timsollarning boshqa kishilar ustidan masxara qilib kulishlari, ularga salbiy munosabatlarini ifodasi sifatida qo'llanib, so'zlovchi timsol badiiy tasviriga xos salbiy talqin-u tavsiflarni to'ldirishdek uslubiy vazifa ham bajaradi. Masalan, *Anvarning birarta kambag'al bilan “yozilishib” o'lturganini ko'rsa, ichidan achchig'lanib* **“kullushay'in yarjiu ilo aslihi...” past hamisha pastligini qiladir...** *Sut bilan kirgan – jon bilan chiqar, maqoli ko'p to'g'ri so'z, deb o'ylar va ensasi qotib, chetka ketar edi.* (99-b.)

Bu o'rinda qo'llangan kiritmalar Solih maxdumning salbiy xulq-atvorini yanada to'ldiradi, uning xarakteridagi “qora ranglar”ni yanada quyuqlashtirgan.

Yoki: *Shunday fursatlarda “alamzada” muftilar ham birar latifa so'zlashka tutunar, aksar, latifa mazmunini bir tarafka burib yuritar edilar. Ba'zan Shahodat mufti ishdan charchag'an kabi oh tortib, o'zicha* **“mutulasadu filg'abobi ju'an va lahmud-tayri yutrahu lil kilo”,** *desa, ikkinchi yoqdan Kalonshoh mirzo shu maqolning davomini so'zlab* **“va xinziru yanomu filfirosh va ulul-quli yanomu alat-turob”,** *derdi. Mulla Abdurahmon ularning kinoyasi mazmuniga tushunibmi yoki tushun-masdanmi – harholda bir iljayib qo'yar edi.* (174-b.)

Mutulasadu filg'abobi ju'an va lahmud-tayri yutrahu lil kilo – Arslon changalzorda ochliqdan jon beradir, ammo itni qush go'shti bilan boqadirlar.

Va xinziru yanomu filfirosh va ulul-quli yanomu alat-turob – To'ng'uz huzur qilib to'shakda uxlaydir, oqillar tuproqda yotadirlar.

– *Ana xolos. Az karnaychi yak kuf.* (160-b.)

Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanida o'zbeklar orasidagi qiziqchilik, tanqidchilik va askiyachilik san'atining davlatchiligimizda siyosiy ahamiyati keng ochib bergan. Xudoyorxonni qiziqchilari Zokir-gov, Bahrom, Bahtiyor, Davlat kabi o'z qiliqlari hamda muqallidlari orqali mansabdor tabaqa yo'l qo'yyotgan kamchiliklar va qusurlardan boxabar qilgan. Xon shu asnoda amaldorlarni yurtni adolat bilan boshqarish lozimligi haqida ogohlantirgan, kerak bo'lsa adolat

mezonlariga rioya etishga majbur qilgan. Buni isbotlovchi misollar asarda ko`plab uchraydi. Masalan, qiziqlar shayxulislom Valixon to`ra o`qish uchun shaharga kelgan tojik yigitlariga madrasa hujralaridan joy berishi voqeasini forsha kiritmalar vositasida juda asosli va jonli ifoda etishga erishgan:

- *Xo`b, xo`b... **Shumo gujoyi?** (Siz qayerliksiz?)*
- *Taqsir, Oltiariqdan... (170-b.)*

Boshqa o`rinda:

- *Xo`b, xo`b... Akun (endi) hujralarimiz mullabachchalar minan behad to`lgan, holonki bir tariq ham sig`maydi, biz durug` (yolg`on) so`zlamaymiz, **boshidan** (o`rgulay)... (171-b).*

Endi boshqa holat:

- *Xo`b... **Gujoyi?***
- *Taqsir, chustiy, ba janobi shumo hamshahriy* (Chustlikman, siz janoblariga hamshaharman).
- *Ya`ni pisar ki?*
- *Pisari usto Muhammad sobungar.*
- *Xo`b, xo`b, - dedi “shayxulislom” va “mirzo Hamdam”ga buyurdi, – **ba hamin odam yak hujra dodan gir** (Shu odamga bir hujra bergin)!*

Ayrim o`rinlarda kiritmalar diniy koloritni ifodalashga xizmat qilgan:

- *Sabr qiling, domla, sabr: “**Innalloha ma`assobirin**”. (247-b.)*
- ***Kullu yavmin batar** – bunisi undan ham qabihroq bo`ldi... (247-b.)*

Tahlillardan ko`rinadiki, bir xil nomlanayotgan, garchi ba`zi o`rinlarda *kiritmalar va chet til kiritmalari* terminlari deb farqlanayotgan bo`lsa-da, yuqoridagi birliklar mohiyati, qo`llanishi, vazifasi jihatidan farqlanuvchi birliklardir. Bizningcha, gap mazmuniga yoki uning ayrim bo`laklari ma`nosiga oid qo`shimcha izoh, ma`lumotlar berish, tushunarsiz va tushunilishi qiyin so`zlar ma`nosini, ayrim leksik birliklarning talaffuzi yoki etimologiyasini izohlash, so`zlovchining subyektiv-emotsional munosabatini ifodalash, xabar manbaini ko`rsatish, qo`shimcha ma`lumotlar berish uchun xizmat qiluvchi ayrim bo`lak, birikma, gaplarga nisbatan izohlovchi birliklar terminini qo`llash maqsadga muvofiq.

Kiritmalarlarga kelsak, ular xorijiy tillarga mansubligi nuqtai nazaridan umumiylik kasb etsa-da, tarjima va o'z til matnlarida qo'llanishi ham bu o'rinda uslubiy vazifasi jihatidan farqlanishini e'tiborga olgan holda kiritmalar terminining ta'rifini kengaytirish, to'ldirish hamda qo'llanishiga ko'ra tarjima matnlariga xos kiritmalar, o'z til matnlariga xos kiritmalarga ajratish to'g'riroq bo'ladi.

3.2. Adibning timsollarni tasvirlash mahorati

Asarning bosh qahramonlari Anvar va Ra'nolardir. Ular romanda adolat, erk, sof sevgi uchun kurashuvchi, razolatga qarshi boruvchi kuch sifatida tasvirlanadi va Solih maxdum, Abdurahmon domla singari ruhoniylarga, Xudoyorxon singari zolim mustabidlarga qarshi qo'yiladi. Bu esa asarda antiklerikal va antifeodal mavzuning pishiqlik ishlanganidan dalolat beradi.

Anvar mehnatkash oilada dunyoga keladi va uning ota-onasi muhtojlikda vafot etadilar. Anvar qashshoqlik va yetimlik kulfatlarini tortadi, lekin u maktabdor domla Solih maxdumning oilasida asrandi o'g'il bo'lib qoladi.

Atoqli san'atkor o'z romanida ko'plab hodisalarni, tarixiy voqealarni bir o'q atrofida uyushtirish – yaxlit badiiy shakl yaratish uchun Solih maxdumning oilasi misolidan ustalik bilan foydalangan. Ushbu syujet shakliga Solih maxdumning oilasi asos bo'lib, bu voqeadagi qahramonlarning ruhiy kechinmalari esa adibning o'z kechinmalari, ma'naviy boyligi bilan bog'liqdir.

“Mehrobdan chayon” romanidagi barcha voqealar markaziy qahramon – Anvar obrazi atrofida uyushtirilgan. Shuning uchun asar voqealari Xudoyorxon o'rtasida, Solih maxdum xonadonida va Safar bo'zchi, Muhammad Rajab dargohida yuz berishiga qaramay, ular Anvar taqdiri orqali yirik bir voqeaning uzviy qismlari bo'lib ko'rinadi. Aslida ham shunday, Xudoyorxon istibdodi, domla Abdurahmon zulmi, Safar bo'zchilarning og'ir hayoti o'quvchiga Anvar sarguzashtlari orqali ko'rsatiladi. Bularning hammasi asarning voqeyiy asosi – fabulasini tashkil etadi.

Romanning bosh qahramoni Anvar mehnatkash faqir bir oilada dunyoga kelganlarning biri. Salim bo'yoqchining kutilmagan bu yangi “mehmoni” *“...oxorlik yangi yo'rgak ko'rmaganidek og'alaridan birining eski beshigiga to'qqizinchi kun belandi emas, tiqildi”*. Anvarning ota-onalari hayot zahmatlariga bardosh berolmay bevaqt vafot etgach, u bolalik chog'larini opasi va pochchasining qaramog'ida, so'ngra domla maxdumlar oilasida *“yetimona boshini quyi solgan holda”* o'tkazadi. U zehni va zakovatining o'tkirligi sababli, o'z davrining


haqiqiy bilimdoni bo'lganligi uchungina xon o'rdasining mirzosi darajasigacha ko'tariladi.

Adibning yana bir betakror mahorati shundaki, u qahramonlarni boshqalar nutqi vositasida tasvirlaydi. U Anvarni Nozik nutqi orqali quyidagicha ifodalaydi:

– *Shunday, Gulshan opa, yo'ldan bizga bir yigit hamroh bo'ldi. O'zi qanday yigit deb so'ra: **surma qo'yg'ayndek ohu ko'zi bor, qizil olmadek tarang yuzi bor, endi chiqib kelgan ko'k maysa mo'ylabi, Roziya xonimnikidan ham nafisroq qalam qoshi...** Ustiga kiygan beqasam to'ni o'ziga shunday yarashqanki, biz qizlar ixtiyorsiz unga qarashdiq; a, shundaymi, Tuhfa?* (144-b.)

Ko'rinadiki, Anvar tasvirida o'xshatish va sifatlashlardan mahorat bilan foydalanilgan hamda ifodalarni ta'sirchan chiqishiga erishilgan.

Albatta, Abdulla Qodiriy so'z vositasida badiiy portret chizish bobida ham maktab yaratgan adib. U bu o'rinda ham o'xshatish, metafora va boshqa tasvir vositalaridan mohirlik bilan foydalangan.



“Chayonlar” tinch yotmaydilar. Ularning ikkinchi bir hiylasi natijasida sodiq do'st Sultonali mirzo Anvarning “gunohlari” uchun “barimta” ushlanadi va o'lim jazosiga hukm qilinadi. Bunday nohaqlikka chiday olmagan sof vijdonli Anvar o'rdaga o'zi keladi va xon bilan yuzma-yuz to'qnashadi. *“Raqibni bu qadar jasoratda ko'rgan Xudoyorning, – deb yozadi Abdulla Qodiriy, – kiprik ostlari uchib, soqol tuklari silkindi va bir oz so'z topolmagandek tamshanib turdi”* (239-bet).

Tasvirda qo'llangan fe'llar Xudoyorxon ruhiy holatini o'ta ta'sirchan ifodalashga yo'naltirilgan.

“Mehrobdan chayon” romanida Ra'no obrazi ham yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan.

“Mehrobdan chayon”da muallif badiiy niyatlarini ifoda etuvchi yirik figuralarning biri – maxdumning qizi Ra'nodir. Ra'no romanga tayyor xarakter sifatida kirmay, balki u dinamik o'sib boruvchi obraz bo'lib gavdalanadi.

A.Qodiriy Ra'no xarakterini katta muhabbat bilan, oldingi romanida ko'rganimizdek, Sharq xotin-qizlariga nisbatan bo'lgan chuqur samimiyat bilan yaratadi. Ra'no *“she'riy bir husn”* egasi bo'lishi bilan bir vaqtda *“fazl va zakovatda”* ham yetuk inson go'zalligining timsoli. Yozuvchi Ra'noning ma'naviy dunyosini, shuningdek, uning tashqi qiyofasini o'quvchiga tanishtirar ekan, realistik tasvir vositalaridan, ayni vaqtda, romantik bo'yoqlardan keng foydalanadi.¹ Bu Ra'no tasviriga doir o'rinlarning lisoniy tahlilida ham yorqin kuzatiladi.

Ra'no portreti ham uslub jihatidan mukammal va betakror:

Bizning o'zbeklarda, ayniqsa Qo'qong'a maxsus bir tus, sariqqa moyil bir tus bor. Lekin bu tusni kesdirib sariq deb bo'lmaydir. Chunki biz og'riq kesdirib sariq deb bo'lmadir. Chunki biz og'riq kishining tusini sariq deymiz. Zarcha, za'far tuslari han bunga dag'alliq qiladirlar. Ta'birimiz qo'pol tushmasa, bu go'zal qiz, och ra'no gulining tusida tuklarga ham haligi tusning ta'siri bo'ladir. Ra'noning sochi gungurt-qora, ya'ni quyoshsiz joylarda qora ko'rinsa ham quyoshda bir oz sarg'ish bo'lib ko'rinar edi. Shunga o'xshash Ra'noning ko'zida

¹ Мирзаев И. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.47.

ham buning asari ko`ruladir: mudavvarga moyilroq jodu ko`zi kishiga qattiq qarag`anda qoraliqdan boshqacha yana bir turluk qizg`ish nur sochar edi. Qoshi tutash kabi ko`rinsa ham ko`ndalang yotqan ikki qilich orasini nafis bir quyulib ko`tarilish ajratib turar edi. Burni hech bir munaqqidg`a berishmaslik mutanosib, har zamon uyalish tabassumiga hozir turg`an nafis irinlarining yuqorig`i qismida sezilar-sezilmas tuklar ko`kargan edi. Yuzi cho`ziq ham emas, oy kulcha ham deb bo`lmas, kishiga kulib qarag`anda qizil olma ostlarida ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo`lar, go`yo bizga chin ra`no guli ochilg`an holatda ko`rinar edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillar Ra`noning orqa, o`nginni tutib yotar, qaddi uzunliq bilan qisqaliqning o`rtasi, do`ndiq barmoqlarining jimjilog`ida xina gullari, harholda bu qiz yolg`iz Qo`qonning`ina emas, umuman Farg`onaning kuylariga qo`shulib maxtaladirg`an go`zallaridan edi. (22-23-b.)

“...Ra`noning ismi – jismiga, yoxud husniga juda muvofiq tushkan edi. Men rassom emasman. Agar menda shu san`at bo`lg`anda edi, so`z bilan biljirab o`lturmas, shu o`rinda sizga Ra`noning rasmini tortib ko`rsatar, qo`yar, faqat menga Ra`no gulining suvigina ko`proq bo`lar edi”. (22-b.)

Ra`no gulining o`zi qanday bo`ladi? Atirguldoshlar oilasiga mansub bu gulning yaprog`i silliq, taramligi yumshoq va nozikligining insonga, aynan yosh va navqiron jonli gulga, qiz husniga ko`chirilishining o`zi zavqli.¹

Demak, Ra`no poetonimi ham asarda o`ziga xos badiiy-uslubiy mohiyatga ega. Ra`no antroponimiga gulning ifodalovchi ra`no so`zi lug`aviy asos bo`lgan. Ayrim tilshunoslar fikricha, Ra`no ismi Ra`noning ana shu gul kabi go`zal ekanligiga ishora qilish vazifasini bajargan.²

Romanda bir-biriga qarama-qarshi kuchlar – ikki dunyo kishilari mavjud. Bulardan biri – o`z xohishi yo`lida har qanday razillikdan qaytmaydigan Xudoyorxon, beklar, boylar, ulamolar bo`lsa, ikkinchisi, shu qora kuchlarga qarshi

¹ Лутфиддинова Х. Гулларнинг Раъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 9.

² Худойберганова Д., Андиниязова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Tugon zamin ziyo, 2016. – Б. 84.

mehnatkash xalqning yuksak fazilatlarini o`zida mujassamlashtirgan Anvar va uning safdoshlaridir.¹

Romanda “zulm tig`ini kambag`allar qoni bilan sarbast qilg`on” zolim Xudoyorxon, nopok va razil shaxs Abdurahmon, vijdonini pulga sotishdan qaytmaydigan, xasislarning xasisi Solih maxdum obrazlari ham jonli va to`laqonli bo`lib chiqqan.²

A.Qodiriy mazkur romanida O`rta Osiyo xalqlari tarixiy taraqqiyotiga katta to`siq bo`lib kelgan, fan va madaniyatning ashaddiy dushmanlari bo`lgan islom dini homiylarini fosh etadi, Xudoyorxonning maishiy buzuqligida, xalqqa o`tkazgan zulmida ulamolarning hal qiluvchi rol o`ynaganligini badiiy umumlashmalar orqali ko`rsatadi. Yozuvchi ta`biri bilan aytganimizda: “*Xudoyorxonning bu yo`ldagi birinchi istinodgohi bo`lgan ulamolar, ularning ichki-tashqi ahvoli, axloqi, madrasa va oila hayoti, ulamoda insoniy his bitganligi...*”ni badiiy tasvirlaydi.

Asardagi asosiy voqealarning boshlanishi, rivoji, keskinlashishi va nihoyat yechimida Solih maxdum xarakteri, u taalluqli bo`lgan muhit muhim rol o`ynaydi. “Mehrobdan chayon”da maxdum xarakteri muvaffaqiyatli yaratilganini bir qator olimlar, yozuvchilar tan olganlar. Darhaqiqat, bu obrazning to`laqonli qilib yaratilishi muallif oldida turgan bir qator masalalarning badiiy yoritilishida muhim ahamiyat kasb etganki, uni bu jihatdan “O`tgan kunlar”dagi O`zbek oyim xarakteriga qiyoslash mumkin.

Solih maxdum konkret individual xususiyatlarga ega bo`lgan tipik xarakter. “...uning tabiatida, – deydi muallif, – harchand tirishilsa ham maqtab bo`lmaydirgan xususiyatlar bor: xasislikka o`xshagan holat, tamagir-lik kabi odat, ichi qoralik singari harakat va amsoli...” (14-bet).

Adib tomonidan Solih maxdum portreti, ya`ni uning tashqi qiyofasi va tabiati ham mukammal tasvirlangan:

¹ Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б. 124.

² Мирзаев С. Ўзбек романчилиги. – Самарқанд, 1998. – Б. 51.

Maxdum bo`ychan, olago`sht, siyrak mo`y, oq tan, istarasi issig` bir domla edi. Yoshi ellidan oshqan, soch va soqolida birmuncha oqlar ko`rinar edi. Kishi bilan so`zlashkanda, ayniqsa, bir narsadan taajjublanganda siyrak va lekin to`g`ri, baquvvat o`skan soqolini tutamlab, o`ng ko`zini biroz qisib qarar, odat qilg`anidan bo`lsa kerak, gap orasida “habba” degan so`zni ko`proq ishlatar edi. Domlaning bu “habba”si nima ma`noda qo`llanilar, o`zidan boshqa hech kim bilmaganidek, undan bu to`g`rida izoh ham so`ramag`an edilar. Harholda “habba – habali” yoki “ha, barakalla” bo`lsa kerak. Chunki ul bir narsadan xursand va rozi bo`lg`anda aksar “habba” deb yuboradir. (18-b.)

A.Qodiriy “Mehrobdan chayon” da ham “O`tgan kunlar”da anchagina ko`ringan kontrast tasvir priyomini qo`llaydi. U maxdum bilan Ra`noni qiyos qilib yozadi:

“Solih maxdum xasis, tamagir, har holda sajiyasi e`tibori bilan uni yaxshilar qatoriga qo`yib bo`lmaydi”. Va lekin tabiat xasis emas, tikandan gul, aridan bol yarata beradi. Shunga o`xshash, tikanlik yog`ochdan xush isli, latif ko`rinishli Ra`no yaratilgan edi” (20-bet).

Romanning dastlabki “Maxdumning uylanishi va maktabdorligi”, “Mahdumning ba`zi xislatlari”, “Oila va kishilar bilan muomala” kabi qismlarida domlaning xarakteri realistik ochila boradi:

“Ko`ylak, ishtonning aksari yetti-sakkiz joyidan yamog`i bo`ladi. Yetti qishdan beri guppi-chopon yangilangani ma`lum emas, faqat qish kelib-ketgan sayin alak guppinig yengi o`zgaribgina turadi va astari yil sayin yangidan-yangi yamoqlar bilan boyiydi, shu guppi butun umrida birgina martaba va undan ham maxdumdan beruxsat, ammo Nigor” oyimning zo`ri bilan tog`oraga tushib cho`mildi... Mahalla hazilmandlari maxdumning bu choponiga “mol topar” deb ism berganlar...” (14-bet).

“Besh-olti qayta boshlanib qo`nji bir qarichga kelgan aybaki maxsi”, “harchand ehtiyot qilinsa ham necha joyidan popiltirig`i osilgan oq bo`z salla” xasis domlani yaxshigina xarakterlab turadi.

Demak, yozuvchi romanning boshlanishida Solih maxdumning ichki va tashqi dunyosi bilan o`quvchini yaxshigina tanishtiradi, domla maxdum shakllangan xarakter sifatida namoyon bo`ladi, boshqacharoq aytganda, muallif uni tranflinga olib chiqadi. Endi turli vaziyatlarda uning qanday harakat qilishi, nimalar deyishi mumkinligi kitobxon uchun ma`lum darajada tushunarli, chunki uning xarakter mantiqi yaratilgan.

Abdulla Qodiriy romanda Solih maxdumning dindorligi, xasisligini faqat o`zi bayon etibgina qolmay, balki uning nutqi orqali ham beradi.

Solih maxdum nutqida: *“kiyimnin tog`orada churutasan”, “sholg`om Bibi Fotimai Zahroning duolari barakati, qovoq bo`lsa, hazrati Yunusning mo`jizalari”, “yog`ni kam sol, qovoqning ta`mini buzadi”* kabi jumlar ishlatilgan. Shuningdek, u habba so`zini ko`p qo`llashga o`rganib qolgan. Kitobxon bu so`zni eshitganida ko`z oldiga, albatta, Solih maxdum keladi:

– *Habba! – dedi maxdum, endi nima qoldi; orada go`daklik xayfidan boshqa hech gap yo`q... Oyig`a qirq tillo vazifa, anvo`i hadyi shohona, yana – eldan ko`riladigan obro`, hurmat, hay, hay, hay...(43-b.)*

Maxdum dindorligi bois uning nutqida bir qator o`ziga xos so`zlar ham qo`llanadi:

– *Kishi uyalg`uliy bo`lmasin, Ra`no.*

– **Hayf-da, hayf,** – *dedi maxdum, adras to`nni salmog`lab ko`rib.(90-b.)*

– **Baxayr,** *mulla Abdurahmon, baxayr... Vaalaykum assalom. (147-b.)*

Maxdumga xos salbiy xatti-harakatlar ham lisoniy birliklar vositasida yorqin chizilgan:

Maxdum amri ma`rufdan keyin oshqa qaradi, ko`b vaqt so`zsiz faqat oshdan bosh ko`tarmadi. Maxdumning da`vosicha, har bir ishdan ham “avsat” mezonidir. Lekin osh olishda bu “mezon” unutildi. Boshqalar ora-chora bir go`sht qo`shib olg`anda, maxdum bir oshamni ham go`shtsiz yubormasliqqa tirishib bordi, ya`ni “avsat”dan o`tib “a`lo”da ish ko`rdi...(157-b.)

Parchada qo`llangan *avsat, mezon* lug`aviy birliklari fikrimizning dalilidir.

Nigor oyim qisqa bo`yliq, pista qo`choq targ`il ko`zlik, zarcha tanlik, yuzidagi onda-sonda chechak o`runlari bo`lmag`anda husndor bir xotin edi. O`z bolalari bilangina emas, hatto shogirdlari bo`lg`an qizlar bilan ham juda yumshoq muomala qilar, ortiqcha achchig`lang`an kezlarda “beting qursin” deb, qoshini chimirib olar edi. Eriga o`xshash “ozodliq” uchun bolalarni siqmas, bil`aks “bo`shlig`i” uchun o`zi maxdum tomonidan siqilar edi. Oz va ma`noliq qilib so`zlar, xotinlar bilan muomalasini boshqa otinbibilardek yuqoridan turib qilmas, soddacha suhbatlashar edi. Xotinlar maxdum domlaning ba`zi qiliqlaridan kulishsalar ham Nigor oyimning orqasidan g`iybat so`zlamaslar, oldida qanday hurmatlasalar, eyinidan ham o`shancha ehtiromlab, uning maxdumdek ziqna kishining qo`lig`a qaram bo`lg`anig`a achinib “peshona – deya aylanay, qolu balo”, deyishar edilar. (21-b.)

Endi Abdurahmon o`zining yaqin moziysida usti shiniga belangan ot tezakdan boshqa bir narsa ko`rmaganidek, istiqbolida ham epaqaliq bir hol tasavvur qilolmas edi. (77-b.)

A.Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanida laganbardor Shohidbek portreti orqali uning qanday tabaqaga mansubligini aniq ko`rsatadi:

“... domlaning orqasidan harsillagan-gursillagan, ellik yoshlar chamali semiz bir kishi ko`rindi. Ko`k sallasi manglayining usti bilan o`ralib, o`siq qoshi qovog`iga yetgan bu bekning belidagi kumush kamari benihoyat o`sib tushgan qornini yuqoriga ko`tarib turish vazifasini ado qilar edi. Ortiqcha takallufni Shohidbekning o`zi ko`tarsa ham, go`shti ko`tara olmas edi”.

A.Qodiriy xonlik davri zulmatida og`ir hayot kechirgan, mazlum xalq vakili Safar bo`zchi obrazini san`atkorona chizadi, to`quvchining mehnat jarayoni quruq so`zlar bilan emas, balki inson qalbi, uning xarakteri orqali beriladi. Jikkak, “*elkasi tashqariga turtib, ko`kragi ichiga botgan*”, “*go`yo dastgohga quyilib qo`ygandek*” kabi detallar bilan bo`zchi portreti; ota-buvadan qolgan eski mehnat qurollari, kechalari bilan qora chirog`da, sovuq xonada “asabiylashgan” Safar akani tepki bosishlari, er-xotinning ochdan o`lmaslik uchun qilgan harakatlari o`quvchi ko`z o`ngiga keladi. Ana shunday bir qiyin sharoitda tayyorlangan bo`z bozorga olib

chiqilar ekan, bo`zchi yana bir qator to`siqlarga yo`liqadi, uning o`z iborasi bilan aytsak: *“birota mushkul ig`vo qildimi, zakotchining tomog`i taqilladimi, harchi falokat, qo`ltig`imdagi bo`zni yoppa oldi, qo`ydi”* (60-bet). Bo`zchining dardiga Anvar tushunadi va unga hamdard bo`ladi.

Abdulla Qodiriy romanda yaramas, qabih niyatli odamlarda bo`lgan yovuzlik xislatlarini Abdurahmon domlada umumlashtirgan, uni sof qalbli kishilar boshiga jafo, kulfatlar soluvchi, o`limga duchor qilishdan zavqlanuvchi mehrobdan chiqqan haqiqiy chayon sifatida gavdalantiradi.

Dor tagiga klib qo`lini bog`lashga bergan Anvar iljayib turgan Abdurahmon domlaga ko`zi tushadi va istehzo bilan deydi:

– *Kulishka haqqingiz bor, domla, chunki o`ch olasiz!..*

– *Faqat siz iflosliq natijasida kulasiz, men ... men to`g`rilik samarasini o`raman, siz iflos vijdon bilan g`olibsiz, men sof vijdon bilan mag`lubman... Meni dor ostiga kim keltirdi? Vijdon emasmi, taqsir! Sizni bu yerda kim tomoshabin qildi? Iflosliqe masmi, taqsir?! (280-b.)*

Romanda tasvirlanishicha, Abdurahmon suyagi ifloslik bilan qotgan, fitna uyasida ta`lim olgan, binobarin, mehrobdan chayon bo`lib chiqqan munofiq shaxs.

Abdurahmon – ichiqoralik, ig`vogarlik, vijdonsizlik, g`arazgo`ylik va hasad-go`ylik timsoli. Anvar Abdurahmonga ko`p marta yaxshilik qiladi. Lekin bu yaxshiliklar undan har safar yomonlik bo`lib qaytadi.¹

Abdulla Qodiriy badiiy timsollar nutqiga ham alohida e`tibor qaratadi, ya`ni har bir qahramonni o`ziga mos va xos tarzda so`zlatadi. Chunonchi, asardagi bolalarni ham bola tilida so`zlatadi:

– ***Ra`napa, Ra`napa!*** – *deb Mansur yig`i aralash o`zidan chopib o`tmakchi bo`lg`an Mahmudning ustidan Ra`no orasig`a arz qildi. (Абдулла Қодирий, Меҳробдан чаён. – Тошкент: Sharq, 2015. – Б. 30.)*

– *Dadam yima qilardi?* – *deb so`radi turg`an joyidan. (30-b.)*

– *Mullatning xotini, mullatning xotini... ey, ey, ey! (31-b.)*

– *Mullata, mullata telli, telli! (31-b.)*

¹ Мирзаев С. Ўзбек романчилиги. – Самарқанд, 1998. – Б.52.

Har bir yozuvchi til boyligidan nutq uchun soʻzlar tanlaydi, badiiy obraz yaratishda u yoki bu badiiy vositaga murojaat etadi. Yozuvchining uslubi uning tilida oʻz aksini topadi. Buning uchun ham badiiy asar tili yozuvchi uslubiga bogʻliq holda oʻrganiladi. Bundan tashqari, badiiy asar tili obrazlar bilan ham chambarchas bogʻliq. Chunki til yozuvchining u yoki bu obrazni yaratish uchun leksik, intonatsion va nutqiy vositalarni nima maqsadda tanlaganini, poetik sintaksisdan qanchalik foydalanganini bildiradi. Shu maʼnoda, obraz asar gʻoyaviy mazmuniga shakl boʻlgani kabi, til obraz shakli hisoblanadi. Bu esa, yozuvchining badiiy-adabiy uslubini, badiiy asar tilining oʻziga xos xususiyatini koʻrsatadi.

Bunday gaplarda kesatish, masxaraomuz kulish ohangi kuchli boʻladi. Kino-ya romanda quyidagicha uchraydi:

Raʼno hovli yuzida ikkita ukasining oʻrtasiga tushib, ularning loy oʻyiniga ishtirok etar, yer supurib yotgan soch oʻrim-larining tuproqqa belashganidan xabarsiz edi.

Goʻsht koʻtarib yoʻlakdan kirgan mahdumning koʻzi Raʼnoning shu holiga tushdi:

– **Balli, Raʼno, ana jinnilik! – dedi Mahdum, – atlas koʻylak senga hayf, senga boʻzdan boshqasi hayf!** (6-bet)

Anvar va Raʼno diologida ham hazil bilan qoʻllangan kinoyaviy jumlar kuzatiladi:

– *Men zerikmayman... Qanday osh qilay?*

– *Qaysi xilini buyursam ekan? – deb oʻz-oʻziga savol berdi Anvar. – Ubraga uquving yoʻq, palovni lanj qilasan, somsani yopolmaysan, tuppani kesolmaysan, senga qayla buyurgʻandan, atala qil degan yaxshi, chunki eziltirib yuborasan, manti toʻgʻrisida oʻylash ham ortiqcha... Yana shu holda qanday osh qilay, deb doʻq urgʻaning qiziq.* (199-bet)

Ellipsis hodisasi koʻproq ogʻzaki nutqda va asar personajlari nutqida uchraydi, chunki bunda suhbatdoshlarning bir-biriga nutqiy yaqin turishi mimikalari ortiqcha soʻzlarni ishlatmasdan fikrni aniq va loʻnda bayon etish imkonini beradi. Masalan,

Do`konxonaga bo`z qo`ltiq lab bir kishi kirdi.

- *Safarboy sizmi?*
- *Ha, biz.*
- *Arza berganmidingiz?*
- *Bergan edim.*
- *Otangizning oti nima?*
- *Mamatboy.*

Qo`ltig`idog`i bo`zni oldimga tashladi. Xuddi kechagi bo`zlarim: tappa-taq sakkizta.

- *Bo`zlaringizni oldingiz-ai?*
- *Ha, oldim.*
- *Xayr.*
- *Xo`sh.(70-b.)*

Boshqa o`rinda:

– *Yengding, Ra`no, yengding, – dedi Anvar, – lekin keyingi misrada bir xato qilding...*

- *Masalan?(109-b.)*

Jim qolish ellipsisning bir ko`rinishi bo`lib, yozuvchi yoki notiq kuchli to`lqinlangan kishi nutqini berishda ayrim so`zlarni tushirib qoldiradi:

Anvar o`zidan nariroqqa tushgan bir shingil uzumni olib yedi va bir-ikki g`ujumini hamrohiga uzatdi:

- *Ma, Ra`no. . . (111-b.)*

“Mehrobdan chayon” romanining “Ra`noning egasi” bobida Ra`noning o`z ukalari bilan loy o`ynab o`tirganini ko`rgan Solih mahdumning uni koyishida jim qolishni ko`rish mumkin:

Solih mahdum hanuz Ra`nodan koyib kelar edi:

- *Ishing bo`lmasa kitob o`qi, husnixat ol; sen kulolning qizi emassanki ... (6-b.)*

Jim qolish holati Safar bo`zchi bilan masjid imomi orasidagi dialogda ham qo`llangan hamda ruhiy holatni ta`sirchan ifodalashga xizmat qilgan:

- *O`qumasam, qutulamanmi senlardan!*
- *O`qumasang bor, jo`na!!!*
- *He . . . – deb so`kindi Safar bo`zchi va jilovxonadan chiqib jo`nadi.*(72-

b.)

Intonatsion tasviriylilik vositasi orqali yuzaga keluvchi ritorik undovlar so`roq yoki intonatsion xarakterga ega bo`lishi mumkin.

So`roq xarakteridagi ritorik undovlar mamnunlik, ha`yratlanish, taajjub, tasdiq va ba`zan norozilikni ifodalaydi:

Tasdiq, mamnunlik mazmuni: *A, shunday yigit mirzaboshi bo`lmay kim bo`sin, Samadboy!* (70-b.)

Ha`yar mazmuni: *Baraka topqurni qarang, taqsir. A, shundaqa odam ham bo`ladimi, Samad og`a, “Oltin olmasang duo ol” deb qo`limni ochdim.*(69-b.)

E`tiroz, norozilik mazmuni:

– *Padar la`nat, adabsiz! – dedi Samad, – domlaga shunday so`zni aytasanmi-ya!*(72-b.)

Ritorik so`roq gaplar kontekstda aniq javob talab etmaydi, chunki so`roq shaklidagi gaplar bir vaqtning o`zida tasdiqni ham bildirib turadi. Bunday gaplarda intonatsiya asosiy rolni o`ynaydi. Masalan, Mohlar oyim nutqida o`g`li Solih maxdumga nisbatan quyidagi ritorik so`roq gaplar aytiladi:

Mohlar oyim “Kiyimi bir gap bo`lar. Kishilar masjid, madrasa solg`anda, biz bir yatim boqsaq, arzimaydimi? Senga og`irliq qilsa, o`z bisotimdan kiyintiraman, bolam”, – dedi.(49-50-b.)

Yoki ba`zi o`rinlarda ha`yrat, kuchli taajjubni ifodasi sifatida ritorik so`roqlar ishlatilgan:

– *Ikkita bo`zni ikki qo`llab oborsang, – dedi Samad bo`qoq, – qaysi ahmoq olmay qaytarar ekan?*(70-b.)

Bob bo'yicha xulosalar

1. Atoqli san'atkor o'z romanida ko'plab hodisalarni, tarixiy voqealarni bir o'q atrofida uyushtirish – yaxlit badiiy shakl yaratish uchun Solih maxdumning oilasi misolidan ustalik bilan foydalangan. Ushbu syujet shakliga Solih maxdumning oilasi asos bo'lib, bu voqeadagi qahramonlarning ruhiy kechinmalari esa adibning o'z kechinmalari, ma'naviy boyligi bilan bog'liqdir.

2. Abdulla Qodiriy so'z vositasida badiiy portret chizish bobida ham maktab yaratgan adib. U bu o'rinda ham o'xshatish, metafora va boshqa tasvir vositalaridan mohirlik bilan foydalangan.

3. Abdulla Qodiriy romanda yaramas, qabih niyatli odamlarda bo'lgan yovuzlik xislatlarini Abdurahmon domlada umumlashtirgan, uni sof qalbli kishilar boshiga jafo, kulfatlar soluvchi, o'limga duchor qilishdan zavqlanuvchi mehrobdan chiqqan haqiqiy chayon sifatida gavdalantiradi.

Umumiy xulosalar

1. Abdulla Qodiriy mohir soʻz sanʼatkori sifatida “Mehrobdan chayon” romanida til va maʼnaviyat, madaniyat mushtarakligining uygʻun holda koʻrinishlarini namoyon qilib, oʻzbek maʼnaviyati, milliy ibo, nazokat va andishani goʻzal hamda dilbar tilimizda ifoda etish mahoratini namoyish etgan.

2. Romanda mavzu, tasvirga olingan voqea-hodisalar mohiyatiga xos tarixiy, milliy, diniy va yumoristik, hajviy kolorit lisoniy-badiiy jihatdan mukammal ifodalangan. Boshqacha aytganda, romanda oʻzbek tilining barcha imkoniyatlari boʻy koʻrsatgan. Shu bois ham roman oʻzbek adabiyotinigina emas, oʻzbek badiiy nutqining eng sara, eng goʻzal, eng mukammal namunalaridan biridir.

3. Romanda tilning fonetik, morfologik imkoniyatlaridan, xususan, fonetik vositalardan, soʻzlarning fonetik va morfologik variantlaridan badiiy timsol-larning oʻziga xosligini, salbiy qirralarini, davr tiliga xos oʻzgachaliklarni ifodalashda unumli foydalangan.

4. Muallif sarlavha yaratish borasida ham betakror maktab yaratgan. Adib bosh sarlavhadan tortib, ichki kichik sarlavhalarga ham badiiy yuk qoʻygan. Sarlavhalar shakl va mazmun uygʻunligi hamda loʻndalik, mazmunan muxtasarlik, tagmaʼnolik, badiiylilik, obrazlilik tamoyillari asosida yaratilgan boʻlib, mavzu, mazmun va gʻoyaga ishora qiladi, ular haqida “gapirib turadi”.

5. Adib evfemik vositalarni oʻz oʻrnida mohirlik bilan qoʻllab, har bir hodisa, shaxs, voqelik va unga oʻz munosabati tasvirida goʻzal evfemik vositalar tanlagan, mavjud barqaror birikmalarga ham evfemik tus bera olgan. Natijada voqea-hodisalar, shaxsning ichki va tashqi qiyofasi hamda adibning ularga badiiy-estetik munosabati taʼsirli ifodalangan.

6. Abdulla Qodiriy asarlaridagi disfemizmlarning mavzu doirasi evfemizmlarga nisbatan ancha tor va u soʻkish, haqorat, qargʻish, kinoya, masxara ifodalashga xizmat qilgan.

7. Abdulla Qodiriy oʻzbek tili frazeologizmlaridan voqea-hodisalarni aniq, ixcham, obrazli tasvirlashda, satira va yumor ruhini, kinoya, piching kabi salbiy

jihatlarini uslubiy ta'sirchan ifodalashda mahorat bilan foydalangan. U faqat umumtil frazeologizmlarini qo'llash bilan qanoatlanmay, o'zi ham yangi frazeologizmlar, perifrazalar yaratib, o'zbek tili frazeologiyasini boyitgan.

8. Har bir sahifasida u yoki bu qahramon nutqida, ba'zan adib nutqida qo'llangan maqol hamda matallar asarga ko'rk, milliylik, jozibadorlik, falsafiylik baxsh etish barobarida timsollar induvidalligini ta'min etgan.

9. Asarda forsiy, arabiy kiritmalar: so'z, ibora va gaplar din peshvolari, saroy amaldorlari, maktabdor, madrasa ilmini ko'rgan kishilar nutqida boshqalar-dan o'zlarini ajralib turish, o'zlarini bilimdonliklarini ko'rsatish, ko'z-ko'z qilish kabi maqsadlarning obrazli ifodasi uchun qo'llangan hamda tasvirda hayo-tiylikni ta'minlashga xizmat qilgan.

10. Kiritmalar ayrim timsollarning boshqa kishilar ustidan masxara qilib kulishlari, ularga salbiy munosabatlarini ifodasi sifatida qo'llanib, so'zlovchi timsol badiiy tasviriga xos salbiy talqin-u tavsiflarni to'ldirishdek uslubiy vazifani ham bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқоролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.
2. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
3. Президент Ислом Каримовнинг “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2014. 16. 05. – Б. 1.
4. Абдолимова С. Сарлавҳа матн мазмунининг ифодаси сифатида // А. Нурмонов таваллудининг 60 йиллигига ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2002. – Б. 172-173.
5. Абдулла Қодирий. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Шарқ, 2015. – 288 б.
6. Абдулла Қодирий. Ижод машаққати: Бадиий ижод тўғрисидаги фикр ва мулоҳазалар / Нашрга тайёрловчи Н. Каримов. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
7. Алиев А. Ижод ва изланишлар. – Тошкент, 1976.
8. Карим, Баҳодир. Мувозанат – талқин таянчи. Қодирий қадри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003.
9. Бобожонов Ф. Ўзбек жаҳид драмаларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 24 б.
10. Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: O`zbekiston, 2014.
11. Дониёров Ҳ., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент: Ўздавнашр, 1962.
12. Мирзаев И. Абдулла Қодирий эволюцияси. – Тошкент: Фан, 1972.
13. Тожиев Ё. ва б. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 190 б.

14. Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994.
15. Жалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 24 б.
16. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи мисолида): Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.
17. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарофиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи: Университетлар ва пед. институтлари бакалавр ихтисослигини оловчилар учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – 544 б.
18. Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нутқида антитеза: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 24 б.
19. Лафасов Ў. Қодирийнинг изоҳловчиларни қўллаш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006. – № 3. – Б.70-72.
20. Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1989. – 40 б.
21. Мирвалиев С. Роман ва замон. – Тошкент: Фан, 1983.
22. Мирзаев И. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 1975.
23. Мирзаев С. Ўзбек романчилиги. – Самарқанд, 1998.
24. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – 24 б.
25. Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 24 б.
26. Нормаматов С. Абдулла Авлониё шеърятининг лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 24 б.
27. Султонова М. Ёзувчи услубига доир. – Тошкент, 1973.
28. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

29. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – 680 б.
30. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-ж. – 672 б.
31. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 3-ж. – 688 б.
32. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 4-ж. – 608 б.
33. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-ж. – 592 б.
34. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 316 б.
35. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 216 б.
36. Чориева З.Т. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 24 б.
37. Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърини лингвопоэтикаси: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 24 б.
38. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 246 б.
39. Qurbonova M., Yoʻldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – 116 b.
40. Қодирова Х.Б. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмлардан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 24 б.
41. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 300 б.
42. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.

